

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

*ijtimoiy-igʻtisodiy, innovatsion texnik,
fan va taʼlimga oid ilmiy-amaliy jurnal*

2026-YIL

SENTYABR / 9-SON, II-QISM



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.us/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari


08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google
Scholar

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

OpenAIRE



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
ИМЕНИ Ф.Р. РАКАНОВА
ФИЗИКО-МАТЕМАТИЧЕСКИЕ НАУКИ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, sentyabr.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afforovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

O'ZBEKISTON TIJORAT BANKLARIDA KREDIT RISKINI ERTA ANIQLASH TIZIMINI SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH.....	9
Kobilova Ozoda Abdishukur qizi	
BUYUK BRITANIYA STARTAP EKOTIZIMINI BOSHQARISH MODEL VA O'ZBEKISTON UCHUN SABOQLAR.....	15
Sodiqov Elmurod Shomurod o'g'li	
ФИНАНСОВЫЕ ОГРАНИЧЕНИЯ АГРОБИЗНЕСА, РЕФОРМА ИНСТИТУТА НЕПЛАТЁЖЕСПОСОБНОСТИ И ГЕОГРАФИЯ СЕЛЬСКОЙ БЕДНОСТИ: УЗБЕКИСТАН, 2015–2025 ГОДЫ.....	21
Адилов Шерзот Шамильевич	
AHOLI DAROMADLARI VA ISTE'MOL XARAJATLARINI TADQIQ ETISHNING ZAMONAVIY EKONOMETRIK YONDASHUVLARI	30
Farmonov Dilshod Po'latovich	
SUN'IY INTELLEKT TRANSFORMATSIYASI SHAROITIDA INSON KAPITALIGA QO'YILADIGAN KOMPETENSIYAVIY TALABLARNING O'ZGARISHI: XALQARO TENDENSIYALAR VA O'ZBEKISTON UCHUN USTUVOR YO'NALISHLAR	36
Durdona Davletova	
KICHIK BIZNES SOHASIDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH VA MEHNAT MUNOSABATLARINI TARTIBGA SOLISH OMILLARI, USULLARI HAMDA FUNKSIYALARI	56
Ulug'muradova Nodira Berdimuradovna	
O'ZBEKISTONDA YAKKA TARTIBDAGI TADBIRKORLARNI SOLIQQA TORTISHNING AMALDAGI MEKANIZMI.....	61
Erxanov Muxammadjon Absayitovich	
BOSHQARUV TIZIMIDA IQTISODIY SAMARADORLIKNI OSHIRISHNING ZAMONAVIY MEKANIZMLARI.....	68
Safarov Shohboz Vahob o'g'li	
EVALUATION OF THE PHYTOREMEDIATION POTENTIAL OF AZOLLA CAROLINIANA FOR THE REMOVAL OF TOXIC METALS FROM INDUSTRIAL EFFLUENTS	72
Azimov Shavkat Shuxratovich	
STABLE CEMENT COMPOSITES BASED ON WASTE TIRE RUBBER AND FLY ASH	78
Daminov Oybek, Egamberdiyev Elmurod, Xoliqulov Odiljon	
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIDA ISHLAB CHIQARILGAN MAHSULOTLARNING EKSPORT SALOHİYATINI BAHOLASH.....	85
Xikmatullayeva Nargiza Jamoliddin qizi	
CO-LOCATED SMALL MODULAR REACTORS AS AN ALTERNATE AC POWER SOURCE FOR LARGE NUCLEAR UNITS UNDER REGIONAL GRID CASCADING CONDITIONS: A DESIGN-BASIS ASSESSMENT FOR UZBEKISTAN	90
Turaeva Dilnavoz	
YO'LOVCHI TASHISH TRANSPORTINI BARQAROR IQTISODIYOTGA ULUSHINI EKONOMETRIK MODELASHTIRISH USULLARI.....	96
Dilshod Karimboyev	
СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ И АКТУАЛЬНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ЭЛЕМЕНТОВ НАЦИОНАЛЬНОЙ МОДЫ НА ТУРИСТИЧЕСКОМ РЫНКЕ УЗБЕКИСТАНА	102
Юсупова Мохинур Фарход кизи	
АДАПТИВНОЕ РАЗВИТИЕ ЭНЕРГЕТИЧЕСКИХ ПРЕДПРИЯТИЙ КАК ФАКТОР КАЧЕСТВЕННОГО ЭКОНОМИЧЕСКОГО РОСТА УЗБЕКИСТАНА В УСЛОВИЯХ ЭНЕРГОПЕРЕХОДА.....	110
Аллаева Гульчехра Жалгасовна	



ОЦЕНКА ВЛИЯНИЯ ИНСТРУМЕНТОВ ГОСУДАРСТВЕННОГО УПРАВЛЕНИЯ НА ПОВЕДЕНИЕ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЕЙ	121
Икрамова Нодира Бурхон кизи	
XONDIZA KONI POLIMETALL RUDALARINING MINERALOGIK VA TEXNOLOGIK XUSUSIYATLARINI TADQIQ ETISH.....	128
Abdisoatov Sardor, Axmatov Sobir, Eshnazarov Mustafo	
MALAKALI MUTAXASSISLAR TAYYORLASHDA TA'LIM-INNOVATSION RIVOJLANISHNING MOHIYATI VA UNING NAZARIY ASOSLARI	133
Temirova Shalola Erkinovna	
BENZIN TARKIBIDAGI KISLOROD MIQDORINI ANIQLASH: TAHLIL USULLARI VA ULARNING AMALIY AHAMIYATI	138
To'xtayev Nozim Nazir o'g'li	
EKSTRAKSIYA JARAYONI PARAMETRLARINING ERITUVCHILARNING EKSTRAKSION QOBILIYATIGA BOG'LIQLIGI	142
G'aybullayev Saidjon Abdusalimovich	
THE ROLE OF CHATBOTS IN EDUCATION AND THEIR APPLICATION	150
Hamroyev Bobirjon Bahritdinovich	
KICHIK BIZNES VA UNING MILLIY IQTISODIYOTNI BARQAROR RIVOJLANISHIDAGI O'RNI.....	156
Xolmirzayev Abdulxamid Xapizovich	
KO'P QATLAMLI SFERIK QOBIQNING QOVUSHQOQ-ELASTIK MUHITDAGI XOS (ERKIN) TEBRANISHLARI	161
Jalolov Farruh Baxshulloyevich	
QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARINI ELEKTR ENERGETIKA TIZIMIGA INTEGRATSIYALASH VA ELEKTR TA'MINOTI BARQARORLIGINI OSHIRISH	168
Jafarov Sobir Talab o'g'li	
SENTINEL-1 PSINSAR TEXNOLOGIYASI ASOSIDA QALMOQQIR OCHIQ KARYERI BORTLARINING DEFORMATSIYASINI SUN'IY YO'LDOSH ORQALI MONITORING QILISH	173
Usmonov Firdavs Ro'zimurod o'g'li	
O'ZBEKISTONDA DAVLAT XARIDLARINI TASHKIL ETISHNING AMALDAGI MEXANIZMI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	181
Kurbonbekov Sardorbek Ravshanovich	
АНАЛИЗ ДИНАМИКИ, СТРУКТУРЫ И ТЕНДЕНЦИЙ РАЗВИТИЯ КРЕДИТНОГО ПОРТФЕЛЯ КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ УЗБЕКИСТАНА.....	190
Умаров Улугбек Унарович	
O'ZBEKISTON HUDUDLARIDA IJTIMOY FAROVONLIK VA YASHASH SHAROITLARINI BAHOLASHNING KOMPLEKS YONDASHUVI	197
Jamolov Mirzabek Mirjalil o'g'li	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI	202
Shokirov Shoxruxmirzo Baxtiyorjon o'g'li	
O'ZBEKISTONDA AKSIZ SOLIG'I STAVKALARINING BIR XILDA OSHIRILISHINING FISKAL, ISTE'MOL VA TAQSIMLANISHGA TA'SIRI.....	208
Musurmonov Sherzod Yusupovich	
DEVELOPING A CONCEPTUAL MODEL OF A MARKETING MECHANISM FOR ATTRACTING APPLICANTS	217
Umarov Shuhrat Bahodir o'g'li	
ELEKTRON SAVDO XIZMATLARINING SOTSIAL-IQTISODIY MAZMUNI VA IQTISODIYOTDA TUTGAN O'RNI	230
Ulugmurodov Farxod Faxriddinovich	
DISPERS SISTEMALARINING TURLARI VA ULARNINGYO'L BITUMLARINING XOSSALARIGA TA'SIRINI TADQIQ QILISH	235
Abdullayeva Shoxista Shuxratovna, Adizov Bobirjon Zamirovich	



ЦИФРОВИЗАЦИЯ СЕЛЬСКОГО ХОЗЯЙСТВА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН: ПРОБЛЕМЫ И ПУТИ ИХ РЕШЕНИЯ.....	240
Нуруллаева Гулнара Коптлеуовна	
DAVLAT TIBBIYOT TASHKILOTLARIDA MOLIVAVIY HISOBOTLARNING AXBOROT IMKONIYATLARI (EKONOMETRIK MODELLAR ORQALI BAHOLASH)	245
Kuliboyev Azamat Shonazarovich	
MOLIVAVIY SAVODXONLIK VA AHOLINING TADBIRKORLIK FAOLIYATIGA JALB ETILISHINI OSHIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMLARI	253
Obilov Mirkomil Rashidovich	
IJTIMOIIY TADBIRKORLIKNI DAVLAT TOMONIDAN MOLIVAVIY QO'LLAB-QUVVATLASHNING XORIJIY MODELLARI: QIYOSIY TAHLIL	260
Yerjanov Shohrux Kabil o'g'li	
DAVLAT SUBSIDİYALARINI BOSHQARISH JARAYONLARINI RAQAMLASHTIRISH VA XALQARO RAQAMLI INTEGRATSIYA ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	266
Hasanov To'liqin Axmatovich	
СПЕКТРОСКОПИЧЕСКИЕ ПРОЯВЛЕНИЯ ЭКСИТОННОГО ВЗАИМОДЕЙСТВИЯ ПРИ САМОАГРЕГАЦИИ МОЛЕКУЛ РИБОФЛАВИНА	272
Г.К. Касимова	
QAZIB OLINAYOTGAN ENG YIRIK VA RUDA KONLARINING GEODINAMIK SHAROITLARINI TAHLIL QILISH.....	277
Qo'shshayev Uchqun Quvvatovich	
KO'P O'LCHAMLI BESSEL OPERATORLARIGA ASOSLANGAN LAPLAS-BESSEL DIFFERENSIAL OPERATORINING FORMAL O'Z-O'ZIGA QO'SHMALIGI VA BIR JINSILIK XOSSALARI HAQIDA.....	282
Jo'rayev Shaxzod Shuhratjon o'g'li	
NUQTAVIY BOG'LANISHLAR VA BIRIKTIRILGAN MASSALARGA EGA VISKOELASTIK PLASTINA-QOBIQ TIZIMLARINING ERKIN TEBRANISHLARINI VARIATION-SPEKTRAL TAHLIL QILISH.....	287
Homidov Farhod Faxridinovich	
ELEKTROTEKNIKA TIZIMLARINING METROLOGIK TA'MINOTINI RAQAMLI MONITORING VA INTELLEKTUAL DIAGNOSTIKA ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH	297
Sanayeva Gulsun Baxtiyorovna	
MUHANDISLIK MASALALARINI YECHISHDA CAD VA SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH.....	302
Rustamov Erkin Tohirovich	
ENERGETIKA TIZIMLARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA ENERGIYA SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING BARQAROR RIVOJLANISHDAGI ROLI.....	307
Xafizov Islom Ikramovich	
QANDLI DIABET KASALLIGINING POPULYATSIYADA TARQALISH ZANJIRI VA DINAMIK KO'RSATKICHLARINING MATEMATIK-STATISTIK TAHLILI	314
G'aniyev Qodirjon Qahramon o'g'li	
QURILISH SOHASIDAGI KICHIK BIZNES SUBYEKTLARIGA INVESTITSİYALARNI JORIY ETISH MEXANIZMLARI	319
Yunusov Abduvoxid Abdulkarimovich	
MEVA SHARBATLARINI INFRAQIZIL SPEKTROSKOPIYA (IR/FTIR) USULIDA TAHLIL QILISH VA XEMOMETRIK MODELLASH ORQALI SIFAT KO'RSATKICHLARINI BAHOLASH.....	326
Ibragimov Ulug'bek Muradilloevich	
TO'LDIRUVCHILI UCH QATLAMLI QOVUSHQOQ-ELASTIK PLASTINKALARDA TO'LQIN TARQALISHI VA DINAMIK JARAYONLARNING SONLI TAHLILI	333
Narzulloyev Muxammad Azamatovich	
СВЕРХБЫСТРОЕ УПРАВЛЕНИЕ НАМАГНИЧЕННОСТЬЮ В КОМБИНИРОВАННЫХ СТАТИЧЕСКОМ И ВЫСОКОЧАСТОТНОМ МАГНИТНЫХ ПОЛЯХ	339
Н.Н.Миржонова	



SUN'IIY INTELLEKT ASOSIDA AXBOROT TIZIMLARIDA MA'LUMOTLARNI QAYTA ISHLASH SAMARADORLIGINI OSHIRISH.....	345
Aslonov Qodir Ziyodullayevich ОБОСНОВАНИЕ ГОРНОТЕХНИЧЕСКОГО ЭТАПА РЕКУЛЬТИВАЦИИ РУДНЫХ КАРЬЕРОВ	350
Турсунов Баходир Джунайдуллаевич DAVLAT XARIDLARI SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING USLUBIY YONDASHUVLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	356
Kurbonbekov Sardorbek Ravshanovich LOGISTIKA XARAJATLARINI SHAKLLANTIRISH VA BOSHQARISHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI...	365
Rashidov Uchqun Ro'zimurod o'g'li O'ZBEKISTONDA ORGANIK MAHSULOTLAR EKSPORTINI RIVOJLANTIRISH VA XALQARO BOZORGA CHIQUISH MASALALARI TAHLILI.....	369
Berdiyev Samariddin Raxmatovich FACTORS DETERMINING THE LEVEL OF ESG MANAGEMENT IN THE BANKING SYSTEM OF UZBEKISTAN	374
Abdullaeva Sanemkhan Isayevna O'ZBEKISTONDA INFLYATSIYA MAQSADLASHI REJIMI: SAMARADORLIGI, MUAMMOLARI VA 2026- YILGA YANGILANGAN PROGNOZ TAHLILI.....	381
Inobatov Abror Boshlarovich TO'QIMACHILIK KORXONALARINING EKSPORT SALOHİYATINI BOSHQARISHDA EKSPORTNI DIVERSIFIKATSIYA QILISH IMKONIYATLARI	388
Humoyun Qodirov TURIZM INFRATUZILMASINI BOSHQARISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	394
Zuparova Nargiza, Yusupov Saidvali OILAVIY BIZNESDA STRATEGIK NAZORAT VA FAOLIYAT SAMARADORLIGINI TAHLIL QILISH	400
Mirdjalilova Dildora, Mumindjanov Ulug'bek MA'LUMOTLAR TAHLILI ASOSIDA KORXONALARDA XODIMLARNI RAG'BATLANTIRISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH.....	406
Masharipov Jasur Rozmedovich XUSUSIY TIBBIY XIZMATLAR RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA DAVLAT TOMONIDAN QO'LLANILADIGAN IQTISODIY VOSITALAR	411
To'xtayev Umidjon Shuhrat o'g'li AUDITORLIK TASHKILOTLARINING MOLİYAVIY NATIJALARI ASOSIDA XIZMAT KO'RSATISH SAMARADORLIGINI BAHOLASH	417
Murodova Dilfuza Jalolovna PAXTA XOMASHYOSINING NAMLIK MIQDORINING DASTLABKI ISHLOV BERISH JARAYONI SAMARADORLIGIGA TA'SIRINI TADQIQ ETISH	423
Chorshanbiyeva Mehriniso Rustam qizi MOLIYAVIY HOLAT TO'G'RISIDAGI HISOBOTNI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TRANSFORMATSIYA QILISHNING ILMIY-AMALIY USLUBIYOTI.....	428
Bekberganova Farangiz Birodar qizi BUXORO NEFTNI QAYTA ISHLASH ZAVODIDA NEFTNI ATMOSFERALI HAYDASH QURILMASIDA TEXNOLOGIK MUHIT AGRESSIVLIGINI, KIMYOVIY REAKSIYALAR VA KORROZIYA MEXANIZMLARINI TADQIQ ETISH.....	434
Murodov Malikjon Negmurodovich XIZMATLAR SEKTORIDA BOSHQARUV SAMARADORLIGINI KOMPLEKS BAHOLASH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH.....	438
Tursunova Shahlo Sayfillayevna INNOVATSION IQTISODIYOT TUSHUNCHASI VA UNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI	444
Abduqaxorov Bekzod O'tkir o'g'li	



ENERGIYA MANBALARINI DIVERSIFIKATSIYA QILISHNING ENERGIYA ISTE'MOLI XAVFIGA TA'SIRINI EKONOMETRIK BAHOLASH.....	450
Egamberdiyeva Mardona Komiljon qizi	
SAVDO XIZMATLARIDA SIFATLI BANDLIKNI EKONOMETRIK PROGNOZLASH.....	454
Kuchaboyev Ruslan Tellayevich	
O'QUV AUDITORIYALARIDA KOMPYUTERLI KO'RISH VA CHUQUR O'RGANISH ALGORITMLARI YORDAMIDA TALABALAR ISHTIROKI VA XULQ-ATVORINI AVTOMATLASHTIRILGAN TAHLIL QILISH.....	458
Melibayeva Xilolaxon Numonjon qizi	
O'QUV AUDITORIYALARIDA KOMPYUTERLI KO'RISH VA CHUQUR O'RGANISH ALGORITMLARI YORDAMIDA TALABALAR ISHTIROKI VA XULQ-ATVORINI AVTOMATLASHTIRILGAN TAHLIL QILISH.....	464
U. Z. Narmuradov	
DAVLAT ISHTIROKIDAGI KORXONALARDA KORPORATIV SHAFFOFLIKNI BAHOLASH VA OSHIRISHNING INSTITUTSIONAL MEXANIZMLARI	472
Maxkambayeva Feruza Maxamadjanovna	



UDK 334.72:005.21:347.72

DAVLAT ISHTIROKIDAGI KORXONALARDA KORPORATIV SHAFFOFLIKNI BAHOLASH VA OSHIRISHNING INSTITUTSIONAL MEXANIZMLARI

Maxkambayeva Feruza MaxamadjanovnaE-mail: feruza_maxkambaeva@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada davlat ishtirokidagi korxonalarda korporativ boshqaruvning ochiqlik va shaffoflik prinsiplarini joriy etishning tashkiliy, institutsional va axborot jihatlarini tadqiq etiladi. Tadqiqotda O'zbekiston Respublikasining davlat mulkini boshqarish va davlat ishtirokidagi korxonalarni isloh qilishga oid amaldagi normativ-huquqiy hujjatlari, 2021–2025-yillarga mo'ljallangan strategik ko'rsatkichlar hamda OECDning 2024-yilgi davlat korxonalari uchun korporativ boshqaruv bo'yicha yangilangan yondashuvlari tahlil qilindi. 2021–2025-yillar strategiyasida davlat ishtirokidagi korxonalar sonini 75 foizga qisqartirish, kuzatuv kengashlaridagi mustaqil a'zolar ulushini 30 foizga yetkazish va korporativ boshqaruv qoidalarini korxonalarning 50 foizida joriy etish kabi maqsadlar belgilangan. 2025-yil yakunlari bo'yicha Davlat aktivlarini boshqarish agentligining hududiy resursida 2021–2025-yillarda korxonalar soni 61 foizga qisqartirilgani qayd etilgan. Maqolada ochiq axborotning to'liqligi, o'z vaqtida e'lon qilinishi, ma'lumotlarning tekshiriluvchanligi, kuzatuv kengashining mustaqilligi, manfaatlar to'qnashuvini boshqarish va raqamli monitoringni qamrab oluvchi takomillashtirilgan shaffoflik modeli taklif etiladi. Natijada korxonalar uchun o'chanadigan KPI tizimi, yagona axborot ochiqligi pasporti va choraklik shaffoflik monitoringini joriy etish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Kalit so'zlar: davlat ishtirokidagi korxonalar, korporativ boshqaruv, ochiqlik, shaffoflik, axborotni oshkor qilish, kuzatuv kengashi, mustaqil direktor, komplayens, davlat aktivlari, korporativ hisobot.

Abstract. This article examines the organizational, institutional, and informational aspects of implementing the principles of openness and transparency in corporate governance within state-owned enterprises. The study analyzes the current regulatory and legal framework of the Republic of Uzbekistan concerning state property management and the reform of state-owned enterprises, the strategic indicators for 2021–2025, and the OECD's updated 2024 approaches to corporate governance of state-owned enterprises. The 2021–2025 strategy sets targets such as reducing the number of state-owned enterprises by 75%, increasing the share of independent members on supervisory boards to 30%, and introducing corporate governance rules in 50% of enterprises. According to the territorial resource of the State Assets Management Agency, the number of enterprises decreased by 61% during 2021–2025 as of the end of 2025. The article proposes an enhanced transparency model encompassing the completeness and timely disclosure of publicly available information, data verifiability, supervisory board independence, conflict-of-interest management, and digital monitoring. As a result, practical recommendations are developed for introducing a measurable KPI system, a unified information disclosure passport, and quarterly transparency monitoring for enterprises.

Keywords: state-owned enterprises, corporate governance, openness, transparency, information disclosure, supervisory board, independent director, compliance, state assets, corporate reporting.

Аннотация. В статье исследуются организационные, институциональные и информационные аспекты внедрения принципов открытости и прозрачности корпоративного управления на предприятиях с государственным участием. В исследовании проанализированы действующие нормативно-правовые акты Республики Узбекистан в сфере управления государственной собственностью и реформирования предприятий с государственным участием, стратегические показатели на 2021–2025 годы, а также обновлённые подходы ОЭСР 2024 года к корпоративному управлению государственными предприятиями. В стратегии на 2021–2025 годы установлены такие целевые показатели, как сокращение количества предприятий с государственным участием на 75%, увеличение доли независимых членов наблюдательных советов до 30% и внедрение правил корпоративного управления на 50% предприятий. По итогам 2025 года в территориальном ресурсе Агентства по управлению государственными активами отмечено, что в 2021–2025 годах количество предприятий сократилось на 61%. В статье предлагается усовершенствованная модель прозрачности, охватывающая полноту и своевременность раскрытия открытой информации, проверяемость данных, независимость наблюдательного совета, управление конфликтами интересов и цифровой мониторинг. В результате разработаны практические рекомендации по внедрению измеримой системы KPI, единого паспорта информационной открытости и ежеквартального мониторинга прозрачности предприятий.



Ключевые слова: предприятия с государственным участием, корпоративное управление, открытость, прозрачность, раскрытие информации, наблюдательный совет, независимый директор, комплаенс, государственные активы, корпоративная отчетность.

KIRISH

Bugungi globallashuv va raqamli iqtisodiyot sharoitida davlat ishtirokidagi korxonalar mamlakat iqtisodiy tizimining muhim tarkibiy qismi sifatida namoyon bo'lmoqda. Mazkur korxonalar energetika, transport, kommunal xo'jalik, bank-moliya, telekommunikatsiya, sanoat, tabiiy resurslardan foydalanish va boshqa strategik tarmoqlarda faoliyat yuritib, mamlakatning iqtisodiy barqarorligi, infratuzilmaviy rivojlanishi hamda ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarni amalga oshirishda muhim o'rin egallaydi. Shu bilan birga, davlat ishtirokining mavjudligi korxonalarning boshqaruv tizimida davlat manfaatlari, korporativ manfaatlar va boshqa manfaatdor tomonlar manfaatlarini muvofiqlashtirish masalasini yanada dolzarb qiladi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxona faoliyatining samaradorligini faqat foyda, rentabellik, aktivlar qiymati yoki ishlab chiqarish hajmi kabi moliyaviy ko'rsatkichlar orqali baholash yetarli emas. Zamonaviy korporativ boshqaruv konsepsiyasida boshqaruv qarorlarining asoslanganligi, axborotlarning to'liqligi va ishonchiligi, manfaatdor tomonlar oldidagi hisobdorlik, kuzatuv kengashining mustaqilligi, ichki va tashqi auditning samaradorligi, manfaatlar to'qnashuvining oldini olish hamda korporativ risklarni boshqarish darajasi ham korxona faoliyati samaradorligining muhim mezonlari sifatida qaralmoqda. Ayniqsa, davlat ishtirokidagi korxonalarda ochiqlik va shaffoflik masalasi alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki bunday korxonalarda davlat mablag'lari, davlat aktivlari yoki davlat tomonidan berilgan kafolatlar ishtirok etishi mumkin [1]. Natijada korxona faoliyati to'g'risidagi axborot nafaqat aksiyadorlar va investorlar, balki davlat organlari, kreditorlar, xodimlar, iste'molchilar va keng jamoatchilik uchun ham iqtisodiy ahamiyatga ega bo'ladi. Shu sababli davlat ishtirokidagi korxonalarda axborotning o'z vaqtida, to'liq, aniq, taqqoslanadigan va tekshiriladigan shaklda oshkor etilishi davlat aktivlaridan foydalanish samaradorligi va jamoatchilik ishonchining muhim omili hisoblanadi [2, 3].

Korporativ boshqaruvdagi shaffoflikni faqat korxonaning moliyaviy hisobotlarini e'lon qilish bilan cheklash zamonaviy talablar nuqtayi nazaridan yetarli emas. Hozirgi sharoitda korxonaning mulkchilik tarkibi, davlat ulushi, kuzatuv kengashi va ijroiya organlari tarkibi, mustaqil a'zolar faoliyati, yirik bitimlar, davlat xaridlari, qarz majburiyatlari, dividend siyosati, manfaatlar to'qnashuvi, komplayens tizimi, korrupsiyaga qarshi choralar, ekologik va ijtimoiy ko'rsatkichlar kabi ma'lumotlarning ham ochiqligi talab etiladi. Demak, korporativ shaffoflikni ko'p komponentli va kompleks hodisa sifatida tadqiq etish zarur. O'zbekistonda keyingi yillarda davlat ishtirokini qisqartirish, davlat aktivlarini samarali boshqarish va korporativ boshqaruvning zamonaviy tamoyillarini joriy etish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, 2021–2025-yillarda davlat ishtirokidagi korxonalarni boshqarish va isloh qilish strategiyasida davlat ishtirokidagi korxonalar sonini qisqartirish, korporativ boshqaruvning zamonaviy usullarini joriy etish, kuzatuv kengashlarining rolini kuchaytirish, mustaqil a'zolar ulushini oshirish, korporativ boshqaruv qoidalarini keng joriy etish va korxonalar faoliyati to'g'risidagi axborotlarning ochiqligini ta'minlashga qaratilgan qator vazifalar belgilangan [4, 5]. Mazkur jarayonning mantiqiy davomi sifatida 2023-yil 9-martda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining O'RQ-821-son "Davlat mulkini boshqarish to'g'risida"gi Qonuni davlat mulkini boshqarishning huquqiy va institutsional asoslarini yanada takomillashtirdi. Ushbu huquqiy mexanizmlarning amaliy ahamiyati davlat mulkidan foydalanish, davlat aktivlarini boshqarish, davlat ishtirokidagi xo'jalik jamiyatlarida boshqaruv samaradorligini oshirish va davlat mulkining saqlanishini ta'minlash bilan bevosita bog'liqdir [6].

Davlat ishtirokidagi korxonalar faoliyatini transformatsiya qilish va ularni bozor mexanizmlariga moslashtirish jarayonida kapital bozorining rivojlanishi ham muhim omilga aylanmoqda. Yirik davlat korxonalarini xalqaro va mahalliy fond bozorlariga olib chiqish, IPO va SPO mexanizmlaridan foydalanish hamda xususiy investorlarni jalb qilish korxonalarning moliyaviy va korporativ axborotlarini oshkor qilish sifatiga nisbatan yuqoriroq talablarni yuzaga keltiradi. Investor uchun korxonaning moliyaviy natijasi bilan bir qatorda uning boshqaruv modeli, risklari, aksiyadorlik tuzilmasi, yirik bitimlari, auditorlik xulosalari va kelgusidagi rivojlanish strategiyasi haqidagi ma'lumotlar ham muhim ahamiyatga ega. 2026-yil 25-fevraldagi PQ-74-son qarorda davlat ishtirokidagi korxonalar va tijorat banklarida korporativ boshqaruv madaniyatini rivojlantirish, boshqaruv organlarining faoliyatini takomillashtirish hamda kuzatuv kengashlaridagi mustaqil a'zolar ulushini 50 foizga yetkazish kabi muhim vazifalarning belgilanishi mazkur masalaning dolzarbligini yanada kuchaytirdi [7]. Kuzatuv kengashlari tarkibida mustaqil a'zolar ulushining oshirilishi boshqaruv qarorlarining xolisligi, manfaatlar to'qnashuvining oldini olish va ijroiya organi faoliyati ustidan samarali nazoratni kuchaytirish uchun institutsional asos yaratadi. Shu nuqtayi nazardan, ochiqlik va shaffoflikni faqat axborotni e'lon qilish jarayoni sifatida emas, balki korporativ boshqaruvning barcha bosqichlarini qamrab oluvchi institutsional mexanizm sifatida ko'rib chiqish lozim. Ya'ni shaffoflik mulkdorlik munosabatlaridan tortib strategik rejalashtirish, investitsiya qarorlari, moliyaviy boshqaruv,

davlat xaridlari, risklarni boshqarish, komplayens nazorati va natijalarni baholashgacha bo'lgan jarayonlarda namoyon bo'lishi kerak [8, 9, 10].

Xalqaro amaliyotda ham davlat ishtirokidagi korxonalarni boshqarishda shaffoflik va hisobdorlik asosiy tamoyillardan biri sifatida qaralmoqda. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining (OECD) davlat korxonalarida korporativ boshqaruv bo'yicha 2024-yilda yangilangan tavsiyalarida davlatning mulkdor sifatidagi funksiyasi, davlat korxonalarining bozordagi faoliyati, kuzatuv kengashlarining vakolatlari, manfaatdor tomonlar huquqlarini himoya qilish, risklarni boshqarish va korporativ axborotlarni sifatli oshkor etish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Ushbu yondashuv O'zbekiston uchun ham davlat ishtirokidagi korxonalarni xalqaro korporativ boshqaruv standartlariga yaqinlashtirishda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qilishi mumkin. Tadqiqot nuqtayi nazaridan muhim jihat shundaki, korporativ shaffoflik va iqtisodiy samaradorlik o'rtasidagi bog'liqlik bevosita va bilvosita kanallar orqali shakllanadi. Birinchidan, ochiq va ishonchli axborot investorlar uchun noaniqlik darajasini kamaytirib, kapital jalb qilish imkoniyatlarini kengaytiradi [11, 12]. Ikkinchidan, axborotlarning tizimli oshkor qilinishi menejment va kuzatuv kengashi o'rtasidagi axborot nomutanosibligini kamaytiradi. Uchinchidan, yirik bitimlar, xaridlar va manfaatlar to'qnashuvi haqidagi ma'lumotlarning ochiqligi korrupsiyaviy xavflarni kamaytirishga xizmat qiladi. To'rtinchidan, korxona faoliyatining taqqoslanadigan ko'rsatkichlar asosida baholanishi menejmentning natijadorlikka yo'naltirilganligini kuchaytiradi [13].

Biroq amaliyotda korporativ axborotlarning ochiqligi bilan bog'liq qator muammolar mavjud. Jumladan, ma'lumotlarning turli axborot resurslarida tarqoq joylashishi, bir xil ko'rsatkichlarning turli formatlarda taqdim etilishi, hisobotlarning o'z vaqtida yangilanmasligi, moliyaviy va nomoliyaviy axborotlarning o'zaro integratsiyalanmaganligi, kuzatuv kengashlari faoliyatining yetarlicha yoritilmasligi hamda komplayens va manfaatlar to'qnashuvi bo'yicha ma'lumotlarning cheklanganligi shaffoflikning real darajasini baholashni qiyinlashtiradi.

Mazkur muammolardan kelib chiqib, davlat ishtirokidagi korxonalarda shaffoflikni "bor yoki yo'q" tamoyili asosida emas, balki miqdoriy va sifat ko'rsatkichlari orqali baholash zarur. Bunda axborotning mavjudligi bilan bir qatorda uning to'liqligi, dolzarbligi, ishonchiligi, tekshiriluvchanligi, taqqoslanishi va foydalanuvchi uchun tushunarligi ham hisobga olinishi lozim [14]. Shu maqsadda maqolada muallif tomonidan davlat ishtirokidagi korxonalarning korporativ shaffoflik darajasini kompleks baholash imkonini beruvchi indikatorlar tizimini shakllantirishga alohida e'tibor qaratiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, OECDning 2024-yilda yangilangan Davlat ishtirokidagi korxonalar uchun korporativ boshqaruv bo'yicha qo'llanmasi (OECD Guidelines on Corporate Governance of State-Owned Enterprises) davlat ishtirokidagi korxonalar faoliyatini samarali tashkil etishda davlatning professional mulkdor sifatidagi rolini kuchaytirish, boshqaruv vakolatlari va javobgarlik chegaralarini aniq belgilash, bozor sharoitida teng raqobat muhitini shakllantirish, aksiyadorlar va boshqa manfaatdor tomonlarning huquqlarini himoya qilish hamda yuqori sifatli axborotni o'z vaqtida oshkor etishni asosiy tamoyillar sifatida belgilaydi. Mazkur yondashuvda shaffoflik faqat moliyaviy hisobotlarni e'lon qilish bilan cheklanmay, balki korxonaning mulkiy tuzilmasi, boshqaruv organlarining vakolatlari, strategik maqsadlari, moliyaviy natijalari, risklari, davlat tomonidan berilayotgan imtiyoz va kafolatlari hamda korporativ boshqaruv amaliyotlari to'g'risidagi ma'lumotlarning kompleks ravishda ochiqligini nazarda tutadi [15].

OECD yondashuvining muhim jihati shundaki, davlat ishtirokidagi korxonalarda shaffoflik hisobdorlik, samaradorlik va javobgarlikni ta'minlovchi institutsional mexanizm sifatida qaraladi. Bunda davlatning mulkdor sifatidagi funksiyasi bilan korxonaning kundalik xo'jalik faoliyatini boshqarish funksiyasi o'rtasidagi chegaralarni aniq ajratish muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur chegaralarning noaniqligi boshqaruv vakolatlarining chalkashlashuvi, manfaatlar to'qnashuvi, resurslardan foydalanish samaradorligining pasayishi va agentlik xarajatlarning ortishi xavfini yuzaga keltirishi mumkin. Shu sababli axborotlarning muntazam va standartlashtirilgan tarzda oshkor qilinishi davlat mulkdori, kuzatuv kengashi, ijroiya organlari, aksiyadorlar, investorlar va jamoatchilik o'rtasidagi axborot nomutanosibligini kamaytirishga xizmat qiladi [16].

Shuningdek, OECDning zamonaviy korporativ boshqaruv konsepsiyasida shaffoflikning mazmuni faqat "qancha axborot e'lon qilindi?" degan savol bilan emas, balki "axborot qanchalik to'liq, ishonchli, taqqoslanadigan, o'z vaqtida va foydalanuvchi uchun tushunarli?" degan mezonlar orqali baholanishi lozim [17]. Bu jihat davlat ishtirokidagi korxonalar faoliyatini baholashda oddiy axborot mavjudligi ko'rsatkichidan kompleks shaffoflik indekslariga o'tish zaruratini yuzaga keltiradi.

O'zbekistonda davlat ishtirokidagi korxonalarni isloh qilish jarayonida mazkur xalqaro yondashuvlarning ayrim elementlari bosqichma-bosqich institutsional shaklga keltirilmoqda. Xususan, 2021–2025-yillarda davlat ishtirokidagi korxonalarni boshqarish va isloh qilish strategiyasida korporativ boshqaruvni takomillashtirish,



axborotni oshkor qilish, korporativ boshqaruv reytingini e'lon qilish, yig'ma hisobot yuritish, xaridlar shaffofligini oshirish hamda barcha aksiyadorlar va ishtirokchilar uchun axborotdan foydalanish tengligini ta'minlashga qaratilgan qator mexanizmlar nazarda tutilgan. Bu talablar davlat ishtirokidagi korxonalar faoliyatini faqat ichki boshqaruv nuqtayi nazaridan emas, balki tashqi manfaatdor tomonlar uchun ham ochiq va hisobdor tizimga aylantirishga qaratilgan [18, 19].

Mazkur strategiyada korxonalarning moliyaviy natijalari, biznes-rejalarning bajarilishi, strategik rivojlanish ko'rsatkichlari va korporativ boshqaruv bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar to'g'risida axborot berish mexanizmlarining belgilanganligi davlat korxonalarida hisobdorlikning vertikal va gorizontal shakllarini rivojlantirish uchun muhim institutsional asos yaratadi. Vertikal hisobdorlik davlat mulkdori oldidagi javobgarlikni ifodalasa, gorizontal hisobdorlik aksiyadorlar, investorlar, kreditorlar, xodimlar va boshqa manfaatdor tomonlar oldidagi axborot ochiqqligini anglatadi.

Bundan tashqari, davlat ishtirokidagi korxonalar faoliyatida xaridlar shaffofligi alohida ahamiyatga ega. Davlat ishtiroki mavjud bo'lgan korxonalarda xaridlarning hajmi va iqtisodiy ahamiyati yuqori bo'lishi mumkinligi sababli xarid jarayonlarining ochiqqligi korrupsion xavflarni kamaytirish, manfaatlar to'qnashuvining oldini olish va mablag'lardan samarali foydalanish imkonini beradi. Shu nuqtayi nazardan, shaffoflikni baholashda faqat moliyaviy hisobotlarni emas, balki xaridlar, kontraktlar, manfaatlar to'qnashuvi, boshqaruv qarorlari va yirik bitimlar haqidagi axborotlarni ham qamrab olish maqsadga muvofiq.

O'zbekiston Respublikasining 2025-yil 21-apreldagi PQ-145-son qarori bilan yirik davlat ishtirokidagi korxonalarni xalqaro va mahalliy kapital bozorlariga olib chiqish, xususan, aksiyalarni IPO va SPO mexanizmlari orqali ommaviy taklif qilish masalasiga alohida e'tibor qaratilgan. Ushbu jarayon davlat korxonalarida korporativ boshqaruv va axborot oshkoroti sifatiga qo'yiladigan talablarni yanada kuchaytiruvchi omil sifatida namoyon bo'ladi. Chunki kapital bozorida ishtirok etuvchi investorlar uchun korxonaning moliyaviy holati, daromadliligi, qarzdorligi, korporativ tuzilmasi, risklari, strategik rejalari va boshqaruv sifati to'g'risidagi ma'lumotlarning ishonchlilikligi investitsion qaror qabul qilishning muhim sharti hisoblanadi [20].

Shu ma'noda, IPO/SPO jarayonlarini davlat ishtirokidagi korxonalarda shaffoflikni oshirishning iqtisodiy rag'batli sifatida baholash mumkin. Korxona kapital bozoriga chiqishi bilan uning faoliyati investorlar, professional tahlilchilar, auditorlar va boshqa bozor ishtirokchilari tomonidan muntazam baholanadigan tizimga o'tadi. Natijada axborotni yetarli darajada yoki o'z vaqtida oshkor etmaslik holatlari kamayishi uchun qo'shimcha institutsional sharoit yuzaga keladi.

Shuningdek, kapital bozoriga chiqish korporativ boshqaruvning sifat jihatdan yangi bosqichga o'tishini talab qiladi. Bunda moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlarga muvofiqqligi, mustaqil audit, kuzatuv kengashining samaradorligi, mustaqil a'zolar ishtiroki, ichki nazorat va risklarni boshqarish tizimlari, manfaatlar to'qnashuvini boshqarish hamda investorlar bilan munosabatlarning ochiqqligi muhim omillarga aylanadi [21]. Demak, IPO/SPOni faqat moliyalashtirish vositasi sifatida emas, balki korporativ boshqaruv va shaffoflik standartlarini oshiruvchi institutsional mexanizm sifatida ham ko'rib chiqish lozim.

2026-yilda qabul qilingan PQ-74-son qaror esa davlat ishtirokidagi korxonalar va tijorat banklari faoliyati samaradorligini oshirish, korporativ boshqaruv madaniyatini rivojlantirish hamda kuzatuv kengashlarida mustaqil a'zolar ulushini oshirish yo'nalishlarini yanada kuchaytirdi. Bu holat O'zbekistonda davlat korxonalarida korporativ boshqaruv tamoyillarini qo'llash ko'lami bosqichma-bosqich kengayayotganini ko'rsatadi [22].

Yuqoridagi holatlar shuni ko'rsatadiki, davlat ishtirokidagi korxonalarda shaffoflikni ta'minlashni faqat axborotni e'lon qilish majburiyati sifatida baholash metodologik jihatdan yetarli emas. Shaffoflik korxonaning mulkchilik tuzilmasi, boshqaruv organlari, moliyaviy faoliyati, strategik rivojlanishi, risklarni boshqarishi, davlat bilan munosabatlari, xarid jarayonlari va manfaatdor tomonlar bilan aloqalarini qamrab oluvchi kompleks boshqaruv tizimi sifatida qaralishi lozim.

Shu sababli mazkur tadqiqotda davlat ishtirokidagi korxonalarning korporativ shaffofligini baholash uchun axborotlarning to'liqligi, moliyaviy shaffoflik, korporativ boshqaruv ochiqqligi, komplayens va manfaatlar to'qnashuvi bo'yicha ochiqqlik, xaridlar shaffofligi hamda raqamli axborotlarning o'z vaqtida yangilanishini birlashtiruvchi kompleks yondashuvdan foydalanish taklif etiladi. Bunday yondashuv davlat korxonalarida shaffoflikni miqdoriy baholash, mavjud muammolarni aniqlash va ularni takomillashtirish bo'yicha aniq boshqaruv choralari ishlab chiqish imkonini beradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot davlat ishtirokidagi korxonalarda korporativ boshqaruvning ochiqqligi va shaffofligini baholash hamda uni takomillashtirishning institutsional mexanizmlarini aniqlashga yo'naltirilgan [23]. Tadqiqot metodologiyasi korporativ boshqaruv, axborot oshkoroti, davlat mulkini boshqarish va kapital bozori bilan bog'liq nazariy hamda amaliy yondashuvlarni kompleks o'rganishga asoslangan.

Tadqiqotning nazariy-metodologik bazasini OECDning davlat ishtirokidagi korxonalar uchun korporativ boshqaruv bo'yicha 2024-yilda yangilangan tamoyillari, O'zbekiston Respublikasining davlat ishtirokidagi korxonalarni boshqarish va isloh qilishga oid normativ-huquqiy hujjatlari, shuningdek, korporativ boshqaruv va axborot shaffofligiga oid ilmiy tadqiqotlar tashkil etadi. Tadqiqotda davlat korxonalarida shaffoflikni faqat axborotlarni e'lon qilish darajasi sifatida emas, balki korporativ boshqaruvning samaradorligi, hisobdorligi va manfaatdor tomonlar oldidagi javobgarligini ifodalovchi kompleks institutsional ko'rsatkich sifatida baholashga e'tibor qaratildi.

Tadqiqot jarayonida tizimli tahlil, normativ-huquqiy hujjatlarni kontent-tahlil qilish, qiyosiy tahlil, indikatorlar usuli, trend tahlili, gap-tahlil va grafik tahlil usullaridan foydalanildi.

Tizimli tahlil usuli davlat ishtirokidagi korxonalarda shaffoflikni shakllantiruvchi omillarni o'zaro bog'liq tizim sifatida o'rganish imkonini berdi. Bunda mulkdorlik modeli, kuzatuv kengashi faoliyati, ijroiya organlarining hisobdorligi, moliyaviy hisobot, ichki nazorat, komplayens, davlat xaridlari va raqamli axborot oshkoroti yagona korporativ boshqaruv tizimining tarkibiy elementlari sifatida ko'rib chiqildi.

Normativ-huquqiy hujjatlarning kontent-tahlili orqali O'zbekistonda davlat ishtirokidagi korxonalar faoliyatining ochiqqligi va shaffofligiga qo'yiladigan talablar o'rganildi. Bunda axborotlarni oshkor qilish, aksiyadorlar uchun teng axborot olish imkoniyati, korporativ boshqaruv organlari faoliyatining ochiqqligi, moliyaviy natijalar, strategik rejalar, xaridlar va boshqa muhim ma'lumotlarning e'lon qilinishiga oid normalar tizimlashtirildi.

Qiyosiy tahlil O'zbekistonning amaldagi korporativ boshqaruv amaliyotlarini OECDning davlat ishtirokidagi korxonalar uchun ilg'or tamoyillari bilan solishtirishga xizmat qildi. Mazkur usul orqali shaffoflik, hisobdorlik, mustaqil direktorlar ishtiroki, axborot oshkoroti, manfaatlar to'qnashuvini boshqarish va davlatning mulkdor sifatidagi funksiyalarini amalga oshirish bo'yicha institutsional farqlar aniqlanadi.

Indikatorlar usuli tadqiqotning miqdoriy qismini shakllantirishda asosiy vosita sifatida tanlandi. Ushbu yondashuv korporativ shaffoflikni alohida yo'nalishlar bo'yicha o'lchash va ularni yagona kompleks indeksga birlashtirish imkonini beradi.

Empirik tahlilda rasmiy normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan maqsadli ko'rsatkichlar hamda 2025-yil bo'yicha Davlat aktivlarini boshqarish agentligining hududiy resursida qayd etilgan davlat ishtirokidagi korxonalar sonining 61 foizga qisqargani haqidagi ma'lumotdan foydalanildi. Bunda muhim metodologik cheklovga rioya qilindi: 2021–2025-yillarga mo'ljallangan strategiyada belgilangan boshqa ko'rsatkichlar normativ maqsadlar sifatida alohida ko'rsatilib, ular avtomatik ravishda real ijro natijalari sifatida talqin qilinmadi. Bu yondashuv normativ ko'rsatkich bilan faktik natijani aralashtirib yuborishning oldini oladi.

Davlat ishtirokidagi korxonalarda korporativ shaffoflikni miqdoriy baholash uchun muallif tomonidan Shaffoflikni baholash indeksi (ShBI) — korporativ shaffoflik indeksi taklif etiladi. Indeks quyidagi formula asosida hisoblanadi:

$$\text{ShBI} = 0,25A + 0,20F + 0,15G + 0,15C + 0,15R + 0,10D$$

bu yerda:

ShBI – korporativ shaffoflikning umumiy indeksi;

A – axborotning mavjudligi va to'liqligi;

F – moliyaviy hisobotlarning ochiqqligi va sifati;

G – korporativ boshqaruv organlari faoliyati haqidagi ma'lumotlarning ochiqqligi;

C – komplayens, korrupsiyaga qarshi choralar va manfaatlar to'qnashuvi bo'yicha ochiqqlik;

R – xaridlar, yirik shartnomalar va kontraktlar bo'yicha ochiqqlik;

D – raqamli axborotlarning o'z vaqtida yangilanishi va foydalanish qulayligi.

Har bir komponent 0–100 ball oralig'ida baholanadi. Bunda 0 ball tegishli ma'lumot yoki mexanizmning mavjud emasligini, 100 ball esa belgilangan mezonlarning to'liq bajarilishini anglatadi.

Mazkur modelda komponentlarning og'irlik koeffitsiyentlari bir xil emas. Bunga sabab davlat ishtirokidagi korxonalarda axborotning umumiy mavjudligi va moliyaviy shaffoflik investorlar, aksiyadorlar va boshqa manfaatdor tomonlarning qaror qabul qilishida yuqori ahamiyatga ega ekanligidir. Shu sababli A komponentiga 25 foiz, F komponentiga 20 foiz og'irlik berildi. Korporativ boshqaruv, komplayens va manfaatlar to'qnashuvi hamda xaridlar shaffofligiga 15 foizdan, raqamli axborotlarning tezkorligiga esa 10 foiz og'irlik belgilandi (1-jadval).



1-jadval

Davlat ishtirokidagi korxonalarda kompleks shaffoflik ko'rsatkichini (ShBI) baholash komponentlari va ularning og'irliklari¹

Komponent	Ulushi, %	Baholash mazmuni
A – axborotning mavjudligi va to'liqligi	25	Korxona, mulkchilik tarkibi, strategiya va asosiy faoliyat to'g'risidagi ma'lumotlarning mavjudligi
F – moliyaviy shaffoflik	20	Moliyaviy hisobotlar, audit xulosasi, moliyaviy natijalar va asosiy ko'rsatkichlarning ochiqqligi
G – boshqaruv shaffofligi	15	Kuzatuv kengashi, ijroiya organi, mustaqil a'zolar va boshqaruv tuzilmasi haqidagi ma'lumotlar
C – komplayens va manfaatlar to'qnashuvi	15	Korrupsiyaga qarshi siyosat, komplayens tizimi, manfaatlar to'qnashuvi va etik me'yorlar
R – xaridlar va shartnomalar	15	Xaridlar, yirik kontraktlar, tenderlar va shartnomalar bo'yicha axborotlarning ochiqqligi
D – raqamli tezkorlik	10	Veb-sayt va elektron platformalardagi ma'lumotlarning dolzarbligi, yangilanish tezligi va foydalanish qulayligi
Jami	100	Kompleks shaffoflik ko'rsatkichi

Indeks natijasini talqin qilish uchun quyidagi shartli darajalardan foydalanish taklif etiladi (2-jadval):

2-jadval

Shaffoflik baholash indeksi (ShBI) qiymatlari bo'yicha korxonalarning shaffoflik darajasini tasniflash²

ShBI qiymati	Shaffoflik darajasi	Mazmuni
0–20	Juda past	Axborot ochiqqligi tizimi shakllanmagan
21–40	Past	Ayrim ma'lumotlar mavjud, biroq tizimlilik yetarli emas
41–60	O'rta	Asosiy axborotlar ochiq, lekin muhim bo'shliqlar mavjud
61–80	Yuqori	Shaffoflikning asosiy talablari bajarilgan
81–100	Juda yuqori	Kompleks, tizimli va zamonaviy shaffoflik tizimi shakllangan

Ushbu tasnif muallif tomonidan taklif etilayotgan metodik shkala bo'lib, normativ-huquqiy hujjatda belgilangan rasmiy reyting sifatida talqin qilinmaydi. Uning asosiy maqsadi davlat ishtirokidagi korxonalarni o'zaro qiyoslash, vaqt bo'yicha o'zgarishlarni kuzatish va shaffoflikning zaif tarkibiy qismlarini aniqlashdan iborat.

ShBI indeksini hisoblashning birinchi bosqichida har bir komponent bo'yicha tegishli indikatorlar aniqlanadi. Masalan, moliyaviy shaffoflikni baholashda yillik moliyaviy hisobotning mavjudligi, mustaqil audit xulosasining e'lon qilinishi, moliyaviy natijalarning ochiqqligi va hisobotlarning muntazam yangilanib borishi hisobga olinadi.

Ikkinchi bosqichda har bir indikator bo'yicha ball beriladi. Uchinchi bosqichda indikatorlar tegishli komponent bo'yicha umumlashtirilib, 0–100 ballik yakuniy bahoga keltiriladi. To'rtinchi bosqichda komponent qiymatlari yuqoridagi og'irlik koeffitsiyentlari bilan ko'paytiriladi va yakuniy ShBI qiymati aniqlanadi.

Masalan, shartli ravishda bir davlat ishtirokidagi korxonada A = 80, F = 70, G = 60, C = 50, R = 75, D = 90 ball olgan bo'lsa, indeks quyidagicha hisoblanadi:

$$\text{ShBI} = 0,25(80) + 0,20(70) + 0,15(60) + 0,15(50) + 0,15(75) + 0,10(90)$$

$$\text{ShBI} = 20 + 14 + 9 + 7,5 + 11,25 + 9 = 70,75 \text{ ball.}$$

Demak, mazkur shartli korxonaning korporativ shaffoflik darajasi 70,75 ballni tashkil etadi va taklif etilgan shkala bo'yicha "yuqori" shaffoflik darajasiga kiradi. Biroq ushbu natija korxonada barcha yo'nalishlar bir xil darajada rivojlanganligini anglatmaydi. Misol uchun, raqamli axborotlarning tezkorligi yuqori bo'lsa-da, komplayens va manfaatlar to'qnashuvi bo'yicha ochiqlik past bo'lishi mumkin. Shuning uchun umumiy ShBI bilan bir qatorda uning tarkibiy komponentlarini alohida tahlil qilish ham muhimdir.

Shunday qilib, taklif etilayotgan metodologiya davlat ishtirokidagi korxonalarning shaffofligini faqat "axborot mavjud yoki mavjud emas" mezonini asosida emas, balki axborotning to'liqligi, moliyaviy ochiqlik, boshqaruv hisobdorligi, komplayens, xaridlar shaffofligi va raqamli tezkorlik kabi o'zaro bog'liq yo'nalishlar asosida

1 **Manba:** muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

2 **Manba:** muallif tomonidan ishlab chiqilgan.



kompleks baholash imkonini beradi. Mazkur yondashuv keyingi bosqichda korxonalar kesimida shaffoflik darajasini aniqlash, mavjud “bo’shliqlar”ni (gap) aniqlash va korporativ boshqaruvni takomillashtirish bo’yicha ustuvor choralarni belgilash uchun metodik asos bo’lib xizmat qiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O’zbekistonda davlat ishtirokidagi korxonalarda korporativ boshqaruvning ochiqligi va shaffofligini ta’minlash birgina normativ-huquqiy hujjat bilan emas, balki o’zaro bog’liq bo’lgan qonunlar, Prezident qarorlari va hukumat hujjatlaridan tashkil topgan institutsional tizim orqali amalga oshirilmoqda. Ushbu tizimning shakllanishida davlat mulkini boshqarish, axborot erkinligi, korporativ boshqaruv, xususiylashtirish va kapital bozorini rivojlantirishga qaratilgan huquqiy normalar o’zaro bir-birini to’ldiradi.

2023-yil 9-martdagi O’RQ-821-son “Davlat mulkini boshqarish to’g’risida”gi Qonun davlat mulkini boshqarish sohasidagi munosabatlarni tizimlashtiruvchi muhim huquqiy asoslardan biri hisoblanadi. Mazkur huquqiy baza davlat mulkidan foydalanish, davlat aktivlarini boshqarish va davlat ishtirokidagi korxonalar faoliyatida javobgarlik mexanizmlarini takomillashtirish uchun institutsional zamin yaratadi.

Bunda shaffoflik masalasini faqat davlat aktivlari to’g’risidagi ma’lumotlarni e’lon qilish bilan cheklash yetarli emas. Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlariga oid qonunchilik nuqtayi nazaridan axborotning erkin izlanishi, olinishi, tekshirilishi, tarqatilishi va undan foydalanish imkoniyati ham muhim ahamiyatga ega. Shundan kelib chiqib, davlat ishtirokidagi korxonalarda shaffoflikni ikki o’zaro bog’liq darajada baholash mumkin:

formal-huquqiy shaffoflik — qonunchilikda nazarda tutilgan axborotlarni belgilangan tartibda oshkor qilish;

funksional-korporativ shaffoflik — investorlar, aksiyadorlar, kreditorlar, davlat organlari va jamoatchilik uchun ma’lumotlarning tushunarli, to’liq, taqqoslanadigan, tekshiriladigan va o’z vaqtida taqdim etilishi.

Ikkinchi daraja amaliy jihatdan alohida ahamiyatga ega. Chunki korxona o’z veb-saytida yoki boshqa axborot resursida ma’lumot joylashtirgan bo’lishi mumkin, biroq mazkur ma’lumotlar eskirgan, turli davrlar bo’yicha taqqoslab bo’lmaydigan yoki foydalanuvchi uchun murakkab shaklda taqdim etilgan bo’lsa, bunday holatni yuqori darajadagi korporativ shaffoflik sifatida baholab bo’lmaydi.

O’zbekistonda ushbu masalaga oid normativ bazaning rivojlanishini quyidagi jadval orqali tizimlashtirish mumkin (3-jadval).

3-jadval

Davlat ishtirokidagi korxonalarda korporativ shaffoflikni ta’minlashning normativ-huquqiy asoslari³

Normativ manba	Asosiy talab yoki yo’nalish	Shaffoflikka amaliy ta’siri
VMQ 166-son, 2021-yil 29-mart	Davlat ishtirokidagi korxonalarni boshqarish va isloh qilish strategiyasi; axborot oshkoroti, korporativ boshqaruv reytingi, yig’ma hisobot va xaridlar shaffofligi	Korxonalar faoliyatini taqqoslash, hisobdorlikni kuchaytirish va axborot oshkorotini tizimlashtirish uchun asos yaratadi
VMQ 619-son, 2022-yil 21-sentabr	Korporativ boshqaruvning zamonaviy usullarini joriy etish bilan bog’liq mexanizmlar	Kuzatuv kengashi va ijroiya organlarining vakolati, mas’uliyati va boshqaruv sifatini oshirishga xizmat qiladi
O’RQ-821, 2023-yil 9-mart	Davlat mulkini boshqarishning huquqiy asoslarini belgilash	Davlat aktivlarini boshqarish, ulardan foydalanish va ular bo’yicha javobgarlik mexanizmlarini huquqiy jihatdan mustahkamlaydi
PQ-145, 2025-yil 21-aprel	Yirik davlat ishtirokidagi korxonalarni IPO/ SPO va xususiylashtirish jarayonlariga tayyorlash	Investorlar uchun moliyaviy va korporativ axborot sifatiga qo’yiladigan talablarni oshiradi
PQ-74, 2026-yil 25-fevral	Korporativ boshqaruv madaniyatini rivojlantirish va kuzatuv kengashlarida mustaqil a’zolar ulushini 50 foizgacha oshirish	Boshqaruv qarorlarining mustaqilligi, manfaatlar to’qnashuvini kamaytirish va hisobdorlikni kuchaytiradi

Jadval ma’lumotlarining tahlili shuni ko’rsatadiki, O’zbekistonda davlat ishtirokidagi korxonalar shaffofligining normativ bazasi uchta asosiy bosqichda rivojlanmoqda.

Birinchi bosqichda axborotni oshkor qilish va hisobot berish mexanizmlari shakllantirilgan. Xususan, 2021-yildagi strategiyada korporativ boshqaruv reytinglarini e’lon qilish, yig’ma hisobot yuritish, moliyaviy

3 Manba: normativ-huquqiy hujjatlar asosida muallif tomonidan tuzilgan.



natijalar va strategik ko'rsatkichlar to'g'risida axborot taqdim etish kabi yo'nalishlarning belgilanishi davlat korxonalari hisobdorlikni kuchaytirishga xizmat qildi. Ayniqsa, barcha aksiyadorlar va ishtirokchilar uchun axborot olish tengligi prinsipining belgilanishi korporativ boshqaruvdagi axborot assimetriasini kamaytirish nuqtayi nazaridan muhimdir.

Ikkinchi bosqichda korporativ boshqaruv sifatini oshirish masalasi ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Bunda shaffoflik faqat axborot e'lon qilish bilan emas, balki ushbu axborotni shakllantiradigan boshqaruv institutlarining mustaqilligi va professional salohiyati bilan bog'lanmoqda. Kuzatuv kengashining samarali ishlashi, ijroiya organlarining hisobdorligi va mustaqil a'zolar ishtirokining kengayishi boshqaruv qarorlarining obyektivligini oshiruvchi omillar hisoblanadi.

Uchinchi bosqich esa kapital bozori va investitsion shaffoflik bilan bog'liq. PQ-145-son qarorda yirik davlat ishtirokidagi korxonalar IPO/SPO orqali kapital bozoriga olib chiqishga e'tibor kuchaytirilgani ushbu korxonalardan yuqori sifatli moliyaviy va korporativ axborot talab etilishini anglatadi. Kapital bozoriga chiqayotgan korxona uchun moliyaviy hisobot, audit, mulkchilik tuzilmasi, korporativ boshqaruv, risklar va strategik rivojlanish to'g'risidagi axborot investorning qaror qabul qilishi uchun muhim omilga aylanadi.

Davlat ishtirokidagi korxonalar sonini qisqartirish O'zbekistonda davlat mulkini boshqarish samaradorligini oshirish, xususiy sektor ulushini kengaytirish va bozor mexanizmlarini kuchaytirishga qaratilgan muhim tarkibiy islohotlardan biri hisoblanadi. Biroq mazkur jarayonni faqat korxonalar sonining kamayishi bilan baholash metodologik jihatdan yetarli emas. Davlat ishtirokining qisqarishi bilan bir vaqtda qolayotgan korxonalarda korporativ boshqaruv sifati, axborot ochiqligi, hisobdorlik va ichki nazorat mexanizmlarining kuchayishi ham ta'minlanishi lozim.

2021–2025-yillarga mo'ljallangan strategiyada davlat ishtirokidagi korxonalar sonini 2025-yilgacha 75 foizga qisqartirish maqsadi belgilangan. 2025-yil yakunlari bo'yicha Davlat aktivlarini boshqarish agentligining hududiy resursida 2021–2025-yillarda davlat ishtirokidagi korxonalar soni 61 foizga qisqartirilgani qayd etilgan. Ushbu ikki ko'rsatkichni taqqoslash strategik maqsadning bajarilish darajasini aniqlash imkonini beradi.

Bunda quyidagi hisoblash usulidan foydalaniladi:

Tafvut = Strategik maqsad – amaldagi natija

Tafvut = 75 – 61 = 14 foiz punkt

Shunday qilib, strategik maqsad bilan qayd etilgan natija o'rtasidagi tafvut 14 foiz punktini tashkil etadi.

Bundan tashqari, amaldagi natijaning strategik maqsadga nisbatan bajarilish darajasini quyidagicha aniqlash mumkin:

Bajarilish darajasi = $(61 / 75) \times 100 = 81,3 \%$

Demak, qayd etilgan 61 foizlik qisqarish belgilangan 75 foizlik maqsadning 81,3 foizini tashkil etadi. Mazkur natija davlat ishtirokini qisqartirish yo'nalishida sezilarli tarkibiy siljish mavjudligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, maqsadning to'liq bajarilmaganligi davlat aktivlarini boshqarishning keyingi bosqichida nafaqat miqdoriy qisqartirish, balki qolayotgan davlat ishtirokidagi korxonalar faoliyatining sifat ko'rsatkichlarini yaxshilash zarurligini ko'rsatadi (4-jadval).

4-jadval


Davlat ishtirokidagi korxonalarni qisqartirish bo'yicha maqsad va natija⁴

Ko'rsatkich	Qiymat, %	Izoh
2025-yil uchun strategik maqsad	75	Davlat ishtirokidagi korxonalar sonini qisqartirish bo'yicha normativ maqsad
2025-yilda qayd etilgan natija	61	Davlat aktivlarini boshqarish agentligi hududiy resursida qayd etilgan ma'lumot
Maqsad va natija tafvuti	14	Foiz punktida
Strategik maqsadning bajarilish darajasi	81,3	$61/75 \times 100$
Maqsadga yetishmagan qism	18,7	Strategik maqsadning bajarilmagan ulushi

Mazkur jadvaldan ko'rinadiki, davlat ishtirokini qisqartirish bo'yicha natija strategik maqsadga yaqinlashgan bo'lsa-da, 14 foiz punktlik tafvut saqlanib qolgan. Biroq ushbu tafvutni bevosita "islohotlar muvaffaqiyatsizligi" sifatida baholash biryoqlama xulosa bo'ladi. Chunki davlat ishtirokini qisqartirish jarayonida korxonalarni xususiylashtirish, qayta tashkil etish, tugatish yoki davlat ulushini kamaytirish bilan bir qatorda strategik ahamiyatga ega korxonalarni saqlab qolish zarurati ham mavjud.

4 Manba: muallif tomonidan 2021–2025-yillarga mo'ljallangan strategik ko'rsatkichlar va Davlat aktivlarini boshqarish agentligi ma'lumotlari asosida hisoblangan.

Shu sababli davlat ishtirokini qisqartirish jarayonini “miqdoriy optimallashtirish → sifatli boshqaruv → yuqori shaffoflik” ketma-ketligida ko‘rib chiqish maqsadga muvofiq (1-rasm).



1-rasm. Davlat ishtirokidagi korxonalar sonini qisqartirish bo'yicha strategik maqsad va 2025-yilda qayd etilgan natija.⁵

Grafikda 2025-yil uchun belgilangan 75 foizlik strategik maqsad va 2025-yilda qayd etilgan 61 foizlik natija o'rtasidagi tafovut yaqqol ko'rinadi. Natija strategik maqsadning 81,3 foiziga teng bo'lib, davlat ishtirokini qisqartirish bo'yicha islohotlar sezilarli ko'lamda amalga oshirilganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, 14 foiz punktlilik farq davlat mulkini boshqarish tizimida hali foydalanilmagan institutsional imkoniyatlar mavjudligini anglatadi.

Mazkur natijani korporativ boshqaruv shaffofligi nuqtayi nazaridan tahlil qilganda yanada muhim xulosa yuzaga keladi. Davlat ishtirokining qisqarishi va korporativ shaffoflik o'rtasida avtomatik sabab-oqibat munosabati mavjud emas. Ya'ni davlat ulushining kamayishi korxona boshqaruvi avtomatik ravishda shaffolashishini anglatmaydi. Agar korxona xususiylashtirilmasa yoki davlat ishtiroki saqlanib qolsa, uning samaradorligi va hisobdorligi ko'p jihatdan korporativ boshqaruv mexanizmlarining sifatiga bog'liq bo'lib qoladi.

Shu nuqtayi nazardan, davlat ishtirokidagi korxonalarni qisqartirish siyosatining ikkinchi bosqichi sifatida “qolayotgan davlat korxonalarining boshqaruv sifatini oshirish” masalasi ilgari surilishi lozim. Bunda, avvalo, quyidagi yo'nalishlarga e'tibor qaratish maqsadga muvofiq:

- moliyaviy va nomoliyaviy hisobotlarni muntazam e'lon qilish;
- kuzatuv kengashlarining mustaqilligi va professional salohiyatini oshirish;
- mustaqil kuzatuv kengashi a'zolari ulushini kengaytirish;
- manfaatlar to'qnashuvini aniqlash va boshqarish tizimini takomillashtirish;
- xaridlar va yirik shartnomalar bo'yicha axborot ochiqqligini kuchaytirish;
- ichki audit va komplayens xizmatlarining mustaqilligini ta'minlash;
- korxonalarning rasmiy veb-saytlarida yagona standart asosida korporativ axborotlarni joylashtirish;
- axborotlarni o'z vaqtida yangilash va raqamli formatda taqdim etish.

Ayniqsa, davlat ishtiroki saqlanib qolayotgan korxonalar uchun korporativ shaffoflikning minimal standartlarini joriy etish muhimdir. Bunday standartlar korxonaning moliyaviy holati, davlat ulushi, kuzatuv kengashi tarkibi, rahbariyat, strategik ko'rsatkichlar, yillik hisobot, auditorlik xulosasi, xaridlar, yirik bitimlar, komplayens va korrupsiyaga qarshi siyosat bo'yicha ma'lumotlarni qamrab olishi mumkin.

Bu yondashuv maqolada taklif etilgan ShBI bilan hamohangdir. Xususan, davlat ishtirokini qisqartirish miqdoriy ko'rsatkich sifatida alohida baholansa, ShBI korxonaning qolayotgan boshqaruv sifati va shaffoflik darajasini aniqlash imkonini beradi. Natijada ikki xil, ammo o'zaro bog'liq ko'rsatkichni farqlash mumkin:

- davlat ishtiroki hajmi — davlatning korxonadagi iqtisodiy ishtiroki ko'lami;
- korporativ shaffoflik darajasi — ushbu ishtirok mavjud bo'lgan sharoitda boshqaruv va axborot tizimining ochiqqligi.

Mazkur farqlash ilmiy jihatdan muhimdir. Chunki davlat korxonalari sonining kamayishi iqtisodiyotdagi davlat ishtirokining miqdoriy jihatdan qisqarishini ko'rsatsa, ShBI kabi indikatorlar qolayotgan davlat aktivlarining

5 **Manba:** 2021–2025-yillar strategiyasi va Davlat aktivlarini boshqarish agentligi ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitobi.



qanday boshqarilayotganini baholash imkonini beradi.

Shunday qilib, 2021–2025-yillarda davlat ishtirokidagi korxonalar sonining 61 foizga qisqarishi davlat mulkini optimallashtirish yo‘nalishida muhim natija sifatida baholanishi mumkin. Biroq mazkur jarayonni korporativ boshqaruv shaffofligi bilan bog‘lashda “sonning qisqarishi = boshqaruvning yaxshilanishi” degan soddalashtirilgan yondashuvdan voz kechish lozim. Tadqiqot natijalari davlat ishtirokining qisqarishi bilan bir qatorda qolayotgan korxonalarda ochiq hisobot, mustaqil nazorat, professional boshqaruv, komplayens va raqamli axborot oshkorotini kuchaytirish zarurligini ko‘rsatadi.

Demak, davlat ishtirokini qisqartirishning yakuniy samarasi faqat nechta korxona davlat tasarrufidan chiqarilgani bilan emas, balki qolayotgan davlat aktivlari qanchalik samarali, hisobdor va shaffof boshqarilayotganligi bilan ham baholanishi kerak. Shu nuqtayi nazardan, kelgusida davlat aktivlarini boshqarish samaradorligini baholash tizimida korxonalar soni bilan bir qatorda korporativ shaffoflik indeksi, mustaqil kuzatuv kengashi a‘zolari ulushi, moliyaviy hisobotlarning o‘z vaqtida e‘lon qilinishi va xaridlar ochiqqligi kabi sifat indikatorlaridan foydalanish maqsadga muvofiq.

Davlat ishtirokidagi korxonalarda korporativ boshqaruvni takomillashtirish faqat korxonalar sonini qisqartirish yoki davlat ulushini kamaytirish bilan chegaralanmaydi. Islohotlarning muhim yo‘nalishlaridan biri korxonalarning ichki boshqaruv institutlarini rivojlantirish, kuzatuv kengashlarining professional va mustaqil faoliyatini ta‘minlash, komplayens mexanizmlarini kuchaytirish hamda boshqaruv qarorlarini xalqaro korporativ boshqaruv standartlariga yaqinlashtirishdan iborat.

2021–2025-yillarga mo‘ljallangan strategiyada ushbu yo‘nalishlar bo‘yicha bir qator maqsadli indikatorlar belgilangan. Mazkur indikatorlar davlat ishtirokidagi korxonalarda boshqaruvning institutsional salohiyatini oshirishga qaratilgan bo‘lib, ularning barchasi shaffoflik bilan bevosita yoki bilvosita bog‘liqdir (5-jadval).

5-jadval

2021–2025-yillarga mo‘ljallangan strategiyada korporativ boshqaruv indikatorlarining maqsadli dinamikasi⁶

Ko‘rsatkich	2021-yil maqsadi	2023-yil maqsadi	2025-yil maqsadi	2021–2025-yillardagi o‘zgarish
Mustaqil kuzatuv kengashi a‘zolari, %	5	15	30	+25 p.p.
Korporativ boshqaruv qoidalarini joriy etish, %	10	25	50	+40 p.p.
Komplayens xizmatini joriy etish, %	3	10	20	+17 p.p.
Kuzatuv kengashi qoshida qo‘mitalar, %	50	75	100	+50 p.p.
Chet ellik menejerlarni jalb qilish, dona	20	50	100	+80 dona

Izoh: jadvaldagi qiymatlar strategik hujjatda belgilangan maqsadli ko‘rsatkichlar bo‘lib, ular ushbu maqolada avtomatik ravishda amalda erishilgan natijalar sifatida talqin qilinmaydi.

Jadval ma‘lumotlarining tahlili korporativ boshqaruvni modernizatsiya qilish jarayoni bir vaqtning o‘zida bir nechta institutsional yo‘nalishlarda olib borilganligini ko‘rsatadi. Bunda indikatorlarning boshlang‘ich darajasi va rejalashtirilgan o‘shish sur‘atlari o‘rtasida sezilarli farqlar mavjud.

Birinci navbatda, kuzatuv kengashlari qoshida qo‘mitalar tashkil etish bo‘yicha eng yuqori maqsadli o‘shish kuzatiladi. Ushbu ko‘rsatkich 2021-yildagi 50 foizdan 2025-yilda 100 foizga yetkazilishi rejalashtirilgan bo‘lib, o‘shish 50 foiz punktini tashkil etadi. Bu indikatorning strategik ahamiyati shundaki, korporativ qo‘mitalar boshqaruv qarorlarini chuqurroq va ixtisoslashtirilgan tarzda ko‘rib chiqish imkonini beradi.

Xususan, audit, risklarni boshqarish, mukofotlash va nomzodlarni tanlash kabi yo‘nalishlarning kuzatuv kengashi doirasida alohida ko‘rib chiqilishi boshqaruv qarorlarining sifatini oshirishi mumkin. Bunday institutsional tuzilma shaffoflikni ham kuchaytiradi, chunki qarorlar qabul qilish jarayonining funksional taqsimoti aniqroq bo‘ladi va boshqaruv organlarining javobgarlik chegaralarini belgilash osonlashadi.

Ikkinchi muhim yo‘nalish — korporativ boshqaruv qoidalarini joriy etish. Ushbu ko‘rsatkich bo‘yicha maqsad 2021-yildagi 10 foizdan 2025-yilda 50 foizgacha oshirilgan. Mutlaq o‘shish 40 foiz punktini, nisbiy jihatdan esa boshlang‘ich darajaga nisbatan 5 baravarni tashkil etadi.

Mazkur dinamika davlat ishtirokidagi korxonalarda korporativ boshqaruvning yagona tamoyillarini keng joriy etishga katta e‘tibor berilganini ko‘rsatadi. Korporativ boshqaruv qoidalarining mavjudligi o‘z-o‘zidan shaffoflikni kafolatlamaydi, biroq ular boshqaruv organlarining vakolatlarini, qarorlar qabul qilish tartibini, axborot almashinuvi va hisobdorlik mexanizmlarini standartlashtirish uchun muhim asos yaratadi.

Uchinchi indikator — mustaqil kuzatuv kengashi a‘zolari ulushi. Strategiyada ushbu ko‘rsatkichni 5 foizdan

6 Manba: 2021–2025-yillarda davlat ishtirokidagi korxonalarni boshqarish va isloh qilish strategiyasida belgilangan maqsadli ko‘rsatkichlar asosida muallif tomonidan tizimlashtirildi.

30 foizgacha oshirish maqsadi belgilangan. Bu 25 foiz punktik o'sishni anglatadi. Boshlang'ich darajaga nisbatan ushbu ko'rsatkich 6 baravar oshirilishi ko'zda tutilgan.

Mustaqil a'zolar instituti korporativ boshqaruv shaffofligi uchun alohida ahamiyatga ega. Chunki kuzatuv kengashidagi mustaqil a'zolar ijroiya organlari faoliyatini nisbatan xolis baholash, manfaatlar to'qnashuvini aniqlash, strategik qarorlarni muhokama qilish va aksiyadorlar manfaatlarini himoya qilishda muhim rol o'ynashi mumkin. Shu bilan birga, mustaqillik faqat a'zoning rasmiy maqomi bilan emas, balki uning professional malakasi, manfaatlar to'qnashuvining mavjud emasligi va amaliy qaror qabul qilishdagi mustaqilligi bilan ham baholanishi kerak.

To'rtinchi yo'nalish — komplayens xizmatlarini joriy etish. Mazkur indikator 2021-yildagi 3 foizdan 2025-yilda 20 foizgacha oshirilishi rejalashtirilgan. Mutlaq o'sish 17 foiz punktni, boshlang'ich darajaga nisbatan esa qariyb 6,7 baravarni tashkil etadi.

Komplayens tizimining rivojlanishi korporativ shaffoflikning sifat jihatdan yangi bosqichini shakllantirishi mumkin. Chunki komplayens faqat qonunchilik talablariga rioya etilishini nazorat qilish bilan cheklanmay, korrupsion xavflarni aniqlash, manfaatlar to'qnashuvini boshqarish, etik standartlarga rioya etish va ichki nazorat mexanizmlarini takomillashtirishga xizmat qiladi. Shu sababli ShBI modelida komplayens va manfaatlar to'qnashuvi bo'yicha ochiqlikka 15 foizlik og'irlik berilishi metodologik jihatdan asoslanadi.

Beshinchi indikator — chet ellik menejerlarni jalb qilish bo'lib, strategiyada ularning sonini 2021-yildagi 20 nafardan 2025-yilda 100 nafargacha oshirish maqsadi belgilangan. Bu 80 nafar qo'shimcha menejer jalb qilinishini va boshlang'ich ko'rsatkichga nisbatan 5 baravar o'sishni anglatadi.

Chet ellik professional menejerlarni jalb qilish xalqaro boshqaruv tajribasi, zamonaviy menejment standartlari va natijaga yo'naltirilgan boshqaruv mexanizmlarini joriy etish uchun imkoniyat yaratishi mumkin. Biroq mazkur indikatorni shaffoflikning bevosita ko'rsatkichi sifatida emas, balki boshqaruv sifatini oshiruvchi bilvosita omil sifatida baholash maqsadga muvofiq. Chunki menejerning qaysi mamlakatdan ekanligidan ko'ra, uning malakasi, mustaqilligi, javobgarligi va faoliyat natijalari muhimroqdir.


Maqsadli indikatorlarning umumiy dinamikasi

Keltirilgan indikatorlarni qiyosiy baholashda ularning mutlaq o'zgarishi bilan bir qatorda boshlang'ich qiymatga nisbatan o'sishini ham hisobga olish lozim. Bunda quyidagi natijalar shakllanadi:

- kuzatuv kengashi qo'mitalari: +50 p.p.;
- korporativ boshqaruv qoidalari: +40 p.p.;
- mustaqil a'zolar: +25 p.p.;
- komplayens xizmatlari: +17 p.p.;
- chet ellik menejerlar: +80 nafar.

Demak, foizda ifodalangan indikatorlar orasida eng katta mutlaq o'sish kuzatuv kengashi qoshidagi qo'mitalar bo'yicha — 50 foiz punktni, undan keyin korporativ boshqaruv qoidalarini joriy etish bo'yicha — 40 foiz punktni tashkil etadi.

Biroq faqat mutlaq o'sishni taqqoslash yetarli emas. Boshlang'ich darajaga nisbatan o'zgarish hisoblanganda komplayens xizmatlarini joriy etish va mustaqil a'zolar ulushida yuqori nisbiy dinamika kuzatiladi. Bu esa strategiyada aynan institutsional nazorat mexanizmlarini shakllantirishga alohida e'tibor berilganini ko'rsatadi (2-rasm).



2-rasm. 2021–2025-yillarda korporativ boshqaruvning asosiy maqsadli indikatorlari dinamikasi.⁷

7 **Manba:** 2021–2025-yillarda davlat ishtirokidagi korxonalarni boshqarish va isloh qilish strategiyasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan



2-rasm ma'lumotlari korporativ boshqaruvni modernizatsiya qilishning kompleks xarakterga ega ekanligini ko'rsatadi. Barcha indikatorlar bo'yicha 2021-yildan 2025-yilgacha ijobiy dinamika rejalashtirilgan. Ayniqsa, kuzatuv kengashi qoshidagi qo'mitalarni 100 foiz darajaga olib chiqish va korporativ boshqaruv qoidalarini 50 foiz korxonalarda joriy etish maqsadlari boshqaruv jarayonlarini institutsional jihatdan standartlashtirishga qaratilgan.

Biroq mazkur ko'rsatkichlarni shaffoflik nuqtayi nazaridan baholashda muhim metodologik jihat mavjud: institutning mavjudligi uning samarali ishlayotganini anglatmaydi. Masalan, korxonada audit qo'mitasi tashkil etilgan bo'lishi mumkin, ammo agar u muntazam yig'ilishlar o'tkazmasa, mustaqil axborotga ega bo'lmasa yoki uning tavsiyalari boshqaruv qarorlariga ta'sir qilmasa, formal tashkil etilgan qo'mita real boshqaruv samaradorligini oshirmasligi mumkin.

Shu sababli korporativ boshqaruv indikatorlarini baholashda ikki bosqichli yondashuvni qo'llash taklif etiladi:

Birinchii bosqich — institutsional mavjudlik: tegishli boshqaruv organi, qo'mita, komplayens xizmati yoki korporativ boshqaruv qoidasi mavjudmi?

Ikkinchi bosqich — funksional samaradorlik: ushbu institut amalda ishlayaptimi, uning qarorlari hujjatlashtirilganmi, tavsiyalar bajarilayptimi va natijalar manfaatdor tomonlarga oshkor qilinyaptimi?

Mazkur yondashuv korporativ boshqaruvni baholashni oddiy "mavjud/mavjud emas" mezonidan faoliyat sifati va natijadorligini hisobga oluvchi tizimga olib o'tadi.

Shunday qilib, 2021–2025-yillarga mo'ljallangan strategik indikatorlar davlat ishtirokidagi korxonalarda boshqaruvning institutsional bazasini sezilarli darajada kuchaytirishni nazarda tutgan. Mustaqil kuzatuv kengashi a'zolari, korporativ boshqaruv qoidalar, komplayens xizmatlari va maxsus qo'mitalarning rivojlantirilishi korporativ shaffoflikning tashkiliy asosini yaratadi. Biroq ushbu maqsadlarning real samarasi ularning formal joriy etilishi bilan emas, balki mustaqil nazorat, axborot oshkoroti, qarorlar hisobdorligi va manfaatdor tomonlar uchun amaliy foydaliligi bilan belgilanadi.

Shu jihatdan, mazkur indikatorlar maqolada taklif etilgan ShBI modelining institutsional omillari bilan uzviy bog'liq bo'lib, keyingi tahlilda ularning shaffoflikning alohida komponentlariga ta'sirini baholash imkonini beradi. Ayniqsa, mustaqil kuzatuv kengashi a'zolari va audit/komplayens qo'mitalarining rivojlanishi G va C indikatorlari, korporativ boshqaruv qoidalarining joriy etilishi esa A va G indikatorlari bilan bevosita bog'liq holda ko'rib chiqilishi mumkin.

Davlat ishtirokidagi korxonalarda korporativ boshqaruv shaffofligini oshirish faqat axborotni internet-resurslarga joylashtirish bilan cheklanmasligi kerak. Zamonaviy korporativ boshqaruv nuqtayi nazaridan shaffoflikning haqiqiy darajasi axborotning to'liqligi, aniqligi, o'z vaqtida e'lon qilinishi, tushunariligi, taqqoslanishi va mustaqil tekshirilishi bilan belgilanadi. Shu sababli davlat ishtirokidagi korxonalar uchun ochiqlikni baholashning amaliy modeli nafaqat "axborot mavjud yoki mavjud emas" tamoyiliga, balki axborotning iqtisodiy qiymatini ham hisobga olishi lozim.

Taklif etilayotgan model korxona faoliyatining mulkchilik, moliyaviy natijalar, korporativ boshqaruv, xaridlar, komplayens va ESG yo'nalishlarini qamrab oladi (6-jadval).

6-jadval

Davlat ishtirokidagi korxonalarda ochiqlik va shaffoflikni amaliy baholash modeli⁸

Yo'nalish	Minimal ochiq ma'lumotlar	Yangilanish davriyligi	Baholash mezon
Mulkchilik	Davlat ulushi, aksiyadorlar tarkibi, benefitsiar/aksiyadorlik tuzilmasi	Choraklik	Majburiy axborot maydonlarining 100% to'ldirilishi
Moliyaviy natijalar	Balans, foyda va zarar, pul oqimi, dividendlar, asosiy moliyaviy ko'rsatkichlar	Choraklik/yillik	Moliyaviy hisobot va auditor xulosasining mavjudligi
Boshqaruv	Kuzatuv kengashi tarkibi, mustaqil a'zolar, qo'mitalar, rahbariyat to'g'risidagi ma'lumotlar	O'zgarishdan keyin 2 ish kuni; kamida yillik umumlashtirish	Axborotning to'liqligi va dolzarbligi
Xaridlar	Yirik xaridlar, tanlov g'olibi, xarid qiymati, shartnoma predmeti va asosiy shartlari	Doimiy/oylik	Raqobat, ochiqlik va ma'lumotlar izchilligi

tuzilgan.

8 Manba: muallif tomonidan davlat ishtirokidagi korxonalar faoliyatining ochiqligi va korporativ boshqaruv tamoyillari asosida ishlab chiqilgan.

Komplayens	Komplayens siyosati, manfaatlar to'qnashuvini boshqarish, korrupsiyaga qarshi choralar, murojaatlar statistikasi	Yillik va zarur hollarda operativ	Xavflarni boshqarish va komplayens faoliyati bo'yicha hisobot mavjudligi
ESG	Ekologik, ijtimoiy va korporativ boshqaruv ko'rsatkichlari	Yillik	Solishtiriladigan KPI va dinamik ko'rsatkichlarning mavjudligi

Mazkur modelning muhim jihati shundaki, har bir yo'nalish bo'yicha faqat axborotning mavjudligi emas, balki uning sifati va foydaliligi baholanadi. Masalan, korxonaning faqat sof foydasini e'lon qilishi moliyaviy shaffoflikni to'liq ta'minlamaydi. Investor yoki boshqa manfaatdor tomon uchun daromadlarning shakllanishi, xarajatlar tarkibi, pul oqimlari, qarz majburiyatlari, dividend siyosati, yirik bitimlar va auditor xulosasi to'g'risidagi ma'lumotlar ham muhim ahamiyatga ega.

Shu nuqtayi nazardan, korporativ shaffoflikni "axborotning mavjudligi → axborotning to'liqligi → axborotning o'z vaqtida yangilanishi → axborotning tekshirilishi → axborotning taqqoslanishi" ketma-ketligi asosida baholash maqsadga muvofiq.

1. Mulkchilik bo'yicha shaffoflik

Davlat ishtirokidagi korxonalarda mulkchilik tuzilmasining ochiqdigi alohida ahamiyatga ega. Chunki davlatning korxonadagi ulushi, boshqa aksiyadorlarning tarkibi va yakuniy manfaatdor shaxslar to'g'risidagi axborot korporativ nazoratning kim tomonidan amalga oshirilayotganini aniqlash imkonini beradi.

Mulkchilik bo'yicha axborotning ochiq bo'lishi, birinchidan, aksiyadorlar o'rtasidagi axborot nomutanosibligini kamaytiradi; ikkinchidan, manfaatlar to'qnashuvi xavfini aniqlashni osonlashtiradi; uchinchidan, davlat aktivlaridan foydalanish ustidan jamoatchilik va investorlar nazoratini kuchaytiradi.

Shuning uchun ushbu yo'nalishda asosiy mezon sifatida majburiy axborot maydonlarining to'liq to'ldirilishi va ularning muntazam yangilanib borishi taklif etiladi.

2. Moliyaviy shaffoflik

Moliyaviy axborot davlat ishtirokidagi korxonaning iqtisodiy samaradorligini baholashning asosiy manbalaridan biridir. Biroq moliyaviy shaffoflikni faqat foyda yoki zarar ko'rsatkichi bilan baholash biryozlama xulosa chiqarishga olib kelishi mumkin.

Masalan, korxona foydasining o'sishi uning moliyaviy holati yaxshilanganini anglatishi mumkin, biroq bunda qarzlarining ko'payishi, pul oqimlarining qisqarishi yoki yirik bir martalik daromadlarning mavjudligi ham hisobga olinishi kerak. Shu sababli balans, foyda va zarar hisoboti, pul oqimlari, dividendlar, qarz majburiyatlari va auditor xulosasining birgalikda e'lon qilinishi axborotning analitik qiymatini oshiradi.

Moliyaviy shaffoflikning yuqori darajasi investorlarning noaniqlikni baholash imkoniyatini kengaytiradi va korxona bo'yicha iqtisodiy qarorlarning sifatini oshiradi.

3. Korporativ boshqaruv shaffofligi

Korporativ boshqaruv bo'yicha axborot tarkibida kuzatuv kengashi va ijro organi tarkibi, mustaqil a'zolar ulushi, kengash qo'mitalari, rahbariyat vakolatlar hamda boshqaruvdagi muhim o'zgarishlar aks ettirilishi lozim.

Ayniqsa, mustaqil a'zolar va kengash qo'mitalari to'g'risidagi ma'lumotlarning ochiqdigi boshqaruv qarorlarining mustaqilligi va manfaatlar to'qnashuvini baholash uchun muhimdir. Oldingi bo'limda ko'rib chiqilganidek, mustaqil boshqaruv elementlarining mavjudligi o'z-o'zidan yetarli emas. Ularning amalda strategik nazorat, audit, risklarni boshqarish va rahbariyat faoliyatini baholashdagi ishtiroki ham aniqlanishi kerak.

Shu sababli boshqaruv shaffofligini baholashda institutning mavjudligi bilan bir qatorda uning funksional samaradorligi ham hisobga olinishi lozim.

4. Xaridlar shaffofligi

Davlat ishtirokidagi korxonalarda xaridlar tizimi shaffoflikning eng muhim amaliy yo'nalishlaridan biridir. Yirik xaridlar bo'yicha xarid predmeti, qiymati, tanlov yoki tender g'olibi, shartnoma qiymati va asosiy shartlarning ochiqdiganishi manfaatdor tomonlarga xarid jarayonining raqobatbardoshligi va iqtisodiy asoslanganligini baholash imkonini beradi.

Bunda xaridlar bo'yicha axborotning faqat yakuniy natijasi emas, balki imkon qadar "e'lon → ishtirokchilar → g'olib → qiymat → shartnoma → ijro" zanjiri bo'yicha izchil yuritilishi maqsadga muvofiq. Bu yondashuv xarid jarayonini keyinchalik audit qilish va manfaatlar to'qnashuvi ehtimolini aniqlash imkonini ham oshiradi.

5. Komplayens va korrupsiyaviy xavflarning shaffofligi

Komplayens tizimi korporativ boshqaruvning ichki nazorat mexanizmlaridan biri sifatida shaffoflik bilan bevosita bog'liq. Korxonaning manfaatlar to'qnashuvini boshqarish siyosati, korrupsiyaga qarshi ichki hujjatlari, xodimlar uchun axloq kodeksi, murojaatlar va aniqlangan huquqbuzarliklar bo'yicha umumlashtirilgan statistik ma'lumotlarning e'lon qilinishi boshqaruvdagi institutsional xavflarni baholash imkonini beradi.



Bunda shaxsiy yoki maxfiy ma'lumotlarni oshkor qilmasdan, umumlashtirilgan statistik va institutsional ko'rsatkichlar taqdim etilishi kerak. Masalan, yil davomida nechta manfaatlar to'qnashuvi holati aniqlangani, nechta murojaat ko'rib chiqilgani, korrupsiyaviy xavflarni kamaytirish bo'yicha qanday choralar amalga oshirilgani kabi ma'lumotlar korxonaning komplayens tizimi amalda ishlayotganini baholashga yordam beradi.

6. ESG ko'rsatkichlarining ochiqqligi

Zamonaviy korporativ boshqaruvda moliyaviy natijalar bilan bir qatorda ekologik va ijtimoiy ko'rsatkichlarning ochiqqligi ham tobora muhimlashib bormoqda. Davlat ishtirokidagi korxonalar uchun ekologik ta'sir, energiya va resurslardan foydalanish, mehnat xavfsizligi, xodimlar rivoji, ijtimoiy loyihalar hamda korporativ boshqaruv sifati bo'yicha KPILarni shakllantirish kelgusida shaffoflik tizimini xalqaro amaliyotga yaqinlashtiradi.

ESG ko'rsatkichlari yildan-yilga bir xil metodika asosida e'lon qilinsa, korxonaning faqat joriy holatini emas, balki dinamikasini ham baholash imkoniyati paydo bo'ladi. Bu esa hisobotlarning taqqoslanuvchanligini oshiradi.

Amaliy baholash mexanizmi

Taklif etilayotgan modelni miqdoriy baholash uchun har bir yo'nalish bo'yicha alohida ball berish mumkin. Masalan, har bir indikator 0 dan 100 ballgacha baholanadi:

0 ball — ma'lumot mavjud emas;

25 ball — ma'lumot juda cheklangan yoki eskirgan;

50 ball — asosiy ma'lumot mavjud, biroq to'liqlik yetarli emas;

75 ball — ma'lumot to'liq va muntazam yangilanadi;

100 ball — ma'lumot to'liq, dolzarb, tekshiriladigan, taqqoslanadigan va tarixiy dinamikani aks ettiradi.

Shundan kelib chiqib, umumiy shaffoflik darajasini quyidagi integral ko'rsatkich orqali hisoblash mumkin:

$$\text{ShBI} = 0,25A + 0,20F + 0,15G + 0,15C + 0,15R + 0,10D$$

bu yerda:

A — axborotning mavjudligi va to'liqligi;

F — moliyaviy shaffoflik;

G — korporativ boshqaruv shaffofligi;

C — komplayens va manfaatlar to'qnashuvi bo'yicha shaffoflik;

R — xaridlar va shartnomalar shaffofligi;

D — axborotning raqamli shaklda o'z vaqtida yangilanishi.

Mazkur indeksning afzalligi shundaki, korxona faqat qancha ma'lumot e'lon qilganiga emas, balki ushbu ma'lumotlarning sifati va manfaatdor tomonlar uchun amaliy foydaliligiga ko'ra baholanadi.

ShBI qiymatini quyidagi shkalada talqin qilish mumkin (7-jadval):

7-jadval

Shaffoflik baholash indeksi (ShBI) qiymatlari bo'yicha korxonalarning shaffoflik darajasini tasniflash

ShBI qiymati	Shaffoflik darajasi	Tavsif
0–39	Past	Axborot yetishmasligi va tizimli kamchiliklar mavjud
40–59	Qoniqarli	Asosiy axborot mavjud, biroq to'liqlik va dolzarblik muammolari bor
60–79	Yaxshi	Shaffoflik tizimi shakllangan va muntazam ishlaydi
80–100	Yuqori	Axborot to'liq, dolzarb, tekshiriladigan va taqqoslanadigan

Bunda ShBI korxonalarning mutlaq reytingini belgilovchi yagona ko'rsatkich sifatida emas, balki korporativ shaffoflikni monitoring qilish va vaqt bo'yicha taqqoslash vositasi sifatida qo'llanishi maqsadga muvofiq.

Shuningdek, indeksni hisoblashda axborotning mavjudligi va uning sifati alohida baholanishi kerak. Chunki ma'lumotning mavjudligi uning ishonchli yoki foydali ekanligini anglatmaydi. Shu sababli ShBI metodologiyasida to'liqlik, dolzarblik, verifikatsiya va taqqoslanuvchanlik mezonlarini birgalikda qo'llash korporativ shaffoflikni yanada obyektiv baholash imkonini beradi.

Umuman olganda, taklif etilayotgan amaliy model davlat ishtirokidagi korxonalarda shaffoflikni oddiy axborot e'lon qilish majburiyatidan o'lchanadigan boshqaruv ko'rsatkichiga aylantirishga xizmat qiladi. Mazkur yondashuv investorlar, davlat organlari, aksiyadorlar, kreditorlar va boshqa manfaatdor tomonlar uchun korxona faoliyatini taqqoslash va baholash imkoniyatini kengaytiradi. Eng muhimi, model "axborot mavjudligi"dan "axborotning qaror qabul qilishdagi foydaliligi"ga o'tishni ta'minlaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tadqiqot natijalari davlat ishtirokidagi korxonalarda korporativ boshqaruv shaffofligini ta'minlash masalasi faqat axborotni ochiq e'lon qilish bilan chegaralanmasligi, balki u institutsional boshqaruv

sifati, hisobdorlik, moliyaviy intizom, manfaatlar to'qnashuvini boshqarish va raqamli axborot tizimlari bilan uzviy bog'liq kompleks jarayon ekanligini ko'rsatdi. Shu nuqtayi nazardan, korporativ shaffoflikni korxona samaradorligini oshiruvchi muhim iqtisodiy-institutsional mexanizm sifatida baholash mumkin.

Tadqiqot davomida O'zbekiston Respublikasida davlat ishtirokidagi korxonalar faoliyatining shaffofligini shakllantiruvchi asosiy normativ-huquqiy baza tizimlashtirildi. Xususan, 2021–2025-yillarda davlat ishtirokidagi korxonalarni boshqarish va isloh qilish strategiyasi, davlat mulkini boshqarishning huquqiy asoslari, yirik davlat ishtirokidagi korxonalarni IPO/SPO va xususiylashtirish jarayonlariga tayyorlash hamda korporativ boshqaruv madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan keyingi islohotlar korporativ shaffoflikka bo'lgan talablarni bosqichma-bosqich kuchaytirganini ko'rsatadi. Demak, mamlakatda shaffoflikning huquqiy bazasi shakllangan bo'lib, keyingi bosqichning asosiy vazifasi normativ talablarning amaliy ijrosini kuchaytirishdan iborat.

Davlat ishtirokini qisqartirish bo'yicha tahlil ham muhim xulosalarni berdi. 2021–2025-yillar strategiyasida davlat ishtirokidagi korxonalar sonini 75 foizgacha qisqartirish maqsadi belgilangan bo'lsa, tegishli manbada 2025-yil yakuni bo'yicha 61 foizlik qisqarish qayd etilgan. Bu ko'rsatkich belgilangan maqsadning qariyb 81,3 foizi bajarilganini anglatadi. Mazkur natija davlat ishtirokini optimallashtirish bo'yicha sezilarli siljish mavjudligini ko'rsatsa-da, davlat ulushini qisqartirishning o'zi korporativ boshqaruv sifati va shaffoflik avtomatik ravishda oshganini anglatmaydi. Shu sababli islohotlarning keyingi bosqichi miqdoriy qisqartirishdan sifatli boshqaruv va institutsional shaffoflikni kuchaytirishga yo'naltirilishi lozim.

Korporativ boshqaruv indikatorlari tahlili davlat ishtirokidagi korxonalarda boshqaruv institutlarini modernizatsiya qilish uchun aniq maqsadli yo'nalishlar shakllantirilganini ko'rsatdi. Jumladan, mustaqil kuzatuv kengashi a'zolari ulushini 5 foizdan 30 foizgacha, korporativ boshqaruv qoidalarini joriy etishni 10 foizdan 50 foizgacha, komplayens xizmatlarini 3 foizdan 20 foizgacha oshirish hamda kuzatuv kengashi qo'mitalarini 100 foizga yetkazish bo'yicha maqsadlar boshqaruv tizimining institutsional asoslarini kuchaytirishga qaratilgan. Biroq mazkur ko'rsatkichlar maqsadli indikatorlar ekanligi va ularning mavjudligi tegishli institutlarning amalda samarali ishlayotganini avtomatik ravishda anglatmasligi hisobga olinishi kerak.

Tadqiqotning muhim ilmiy natijalaridan biri davlat ishtirokidagi korxonalarda shaffoflikni baholash uchun ****Kompleks shaffoflik ko'rsatkichi (ShBI)****ni taklif etishdan iborat. Mazkur indeks axborotning mavjudligi va to'liqligi (A), moliyaviy shaffoflik (F), boshqaruv shaffofligi (G), komplayens va manfaatlar to'qnashuvi (C), xaridlar va shartnomalar shaffofligi (R) hamda raqamli tezkorlik (D) komponentlarini o'z ichiga oladi:

$$\text{ShBI} = 0,25A + 0,20F + 0,15G + 0,15C + 0,15R + 0,10D.$$

Ushbu yondashuvning ilmiy-amaliy ahamiyati shundaki, shaffoflikni faqat axborotning mavjudligi bilan emas, balki uning to'liqligi, dolzarbligi, tekshiriluvchanligi, taqqoslanishi va manfaatdor tomonlar uchun axborot qiymati orqali baholash imkonini beradi. ShBI qiymatining 0–39 oralig'ida bo'lishi past, 40–59 qoniqarli, 60–79 yaxshi va 80–100 yuqori shaffoflik darajasini ifodalovchi mezon sifatida taklif qilindi.

Shuningdek, ShBI modelini amaliy boshqaruv vositasiga aylantirish maqsadida oltita asosiy KPI guruhi shakllantirildi. Ular orasida axborot to'liqligiga 25 foiz, moliyaviy ochiqlikka 20 foiz, boshqaruv ochiqligiga 15 foiz, komplayens ochiqligiga 15 foiz, xaridlar shaffofligiga 15 foiz va raqamli dolzarblikka 10 foiz og'irlik berildi. Bunday taqsimot korxonaning moliyaviy va mulkiy axborotlari yuqori iqtisodiy ahamiyatga ega ekanligini hisobga oladi. Shu bilan birga, komplayens, xaridlar va boshqaruv shaffofligi ham korporativ risklarni kamaytiruvchi muhim omillar sifatida baholanadi.

Tadqiqot natijasida shaffoflikni boshqarishda "mavjudlik – to'liqlik – dolzarblik – verifikatsiya – taqqoslanuvchanlik" ketma-ketligi asosiy metodologik tamoyil sifatida belgilandi. Bunda korxona tomonidan ma'lumotning joylashtirilishi shaffoflikning boshlang'ich bosqichi hisoblanadi. Haqiqiy shaffoflik esa ma'lumotning o'z vaqtida yangilanishi, ishonchiligi, tarixiy dinamikani aks ettirishi va manfaatdor tomonlar tomonidan qaror qabul qilishda foydalanilishi bilan belgilanadi.

Shu asosda davlat ishtirokidagi korxonalarda korporativ shaffoflikni oshirish uchun quyidagi ustuvor yo'nalishlarni taklif etish mumkin:

Kritik axborot bo'yicha maksimal ochiqlikni ta'minlash, xususan, mulkchilik tarkibi, moliyaviy hisobot, auditor xulosasi, yirik bitimlar va boshqaruv organlari to'g'risidagi ma'lumotlarni to'liq va muntazam e'lon qilish.

Korporativ axborotni standartlashtirish, ya'ni barcha davlat ishtirokidagi korxonalar uchun yagona axborot tarkibi, formatlari va yangilanish muddatlarini shakllantirish.

Mustaqil kuzatuv kengashi a'zolari va kengash qo'mitalarining real funksional rolini kuchaytirish, bunda faqat ularning mavjudligi emas, balki faoliyati natijalari ham baholanishi lozim.

Komplayens va manfaatlar to'qnashuvini boshqarish tizimini rivojlantirish, aniqlangan xavflar va ularni bartaraf etish choralarini umumlashtirilgan ko'rsatkichlar asosida yoritish.

Xaridlar shaffofligini butun jarayon bo'yicha ta'minlash, ya'ni xarid e'lonidan shartnoma ijrosigacha bo'lgan axborot zanjirini kuzatish imkoniyatini yaratish.

ShBI va KPI ko'rsatkichlarini muntazam monitoring qilish, ularni korxonaning yillik korporativ boshqaruv va faoliyat samaradorligi hisobotlariga integratsiya qilish.



ESG ko'rsatkichlarini bosqichma-bosqich joriy etish, moliyaviy natijalar bilan bir qatorda ekologik, ijtimoiy va korporativ boshqaruv natijalarini ham taqqoslanadigan KPilar asosida ochib berish.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari davlat ishtirokidagi korxonalarda shaffoflikni oshirishni "axborot e'lon qilish"dan "o'lchanadigan korporativ boshqaruv natijasi"ga aylantirish zarurligini ko'rsatadi. Taklif etilayotgan ShBI va KPI tizimlari ushbu jarayonni miqdoriy baholash, korxonalar o'rtasida taqqoslash, zaif yo'nalishlarni aniqlash va boshqaruv qarorlarini takomillashtirish uchun metodik asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Shunday qilib, davlat ishtirokidagi korxonalarda korporativ shaffoflikni oshirishning samarali modeli normativ-huquqiy talablar + mustaqil korporativ boshqaruv + moliyaviy va nomoliyaviy axborotning to'liqligi + raqamli ochiqlik + muntazam KPI monitoringining yagona tizimda ishlashiga asoslanishi lozim. Mazkur yondashuv davlat aktivlaridan foydalanish samaradorligini oshirish, manfaatdor tomonlar ishonchini mustahkamlash, investitsion jozibadorlikni yaxshilash va korporativ boshqaruv sifatini xalqaro tamoyillarga yaqinlashtirish uchun muhim institutsional shart-sharoit yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. World Bank. *Corporate Governance of State-Owned Enterprises: A Toolkit*. — Washington, DC: World Bank, 2014. — DOI: 10.1596/978-1-4648-0222-5.
2. O'zbekiston Respublikasining "Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to'g'risida"gi Qonuni, 2002-yil 12-dekabrda 439-II-son // O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi — LexUZ. — URL: <https://lex.uz/uz/docs/-52268> (murojaat sanasi: 21.09.2026).
3. Florini A. Does the Invisible Hand Need a Transparent Glove? The Politics of Transparency // *Annual World Bank Conference on Development Economics* 1999. — Washington, DC: World Bank, 2000. — P. 163–184.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Iqtisodiyotda davlat ishtirokini qisqartirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori, 2024-yil 19-apreldagi PQ-162-son // O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi — LexUZ. — URL: <https://lex.uz/docs/6898706> (murojaat sanasi: 21.09.2026).
5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "2021–2025-yillarda davlat ishtirokidagi korxonalarni boshqarish va isloh qilish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori, 2021-yil 29-martdagi 166-son // O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi — LexUZ. — URL: <https://lex.uz/uz/docs/5348948> (murojaat sanasi: 21.09.2026).
6. O'zbekiston Respublikasining "Davlat mulkini boshqarish to'g'risida"gi Qonuni, 2023-yil 9-martdagi O'RQ-821-son // O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi — LexUZ. — URL: <https://lex.uz/docs/-6401697> (murojaat sanasi: 21.09.2026).
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Davlat ishtirokidagi korxonalar va tijorat banklari faoliyatining samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori, 2026-yil 25-fevraldagi PQ-74-son // O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi — LexUZ. — URL: <https://lex.uz/docs/8066483> (murojaat sanasi: 21.09.2026).
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Davlat ishtirokidagi yirik korxonalarni transformatsiya qilish va xususiyashtirish jarayonlarini jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori, 2024-yil 19-apreldagi PQ-163-son // O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi — LexUZ. — URL: <https://lex.uz/docs/-6898721> (murojaat sanasi: 21.09.2026).
9. O'zbekiston Respublikasining "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonuni, 2017-yil 3-yanvardagi O'RQ-419-son // O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi — LexUZ. — URL: <https://lex.uz/docs/-3088008> (murojaat sanasi: 21.09.2026).
10. O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonuni, 1996-yil 26-apreldagi 223-I-son (2014-yil 6-maydagi O'RQ-370-son Qonuni tahririda) // O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi — LexUZ. — URL: <https://lex.uz/docs/2382409> (murojaat sanasi: 21.09.2026).
11. Healy P. M., Palepu K. G. Information Asymmetry, Corporate Disclosure, and the Capital Markets: A Review of the Empirical Disclosure Literature // *Journal of Accounting and Economics*. — 2001. — Vol. 31, No. 1–3. — P. 405–440. — DOI: 10.1016/S0165-4101(01)00018-0.
12. Verrecchia R. E. Essays on Disclosure // *Journal of Accounting and Economics*. — 2001. — Vol. 32, No. 1–3. — P. 97–180. — DOI: 10.1016/S0165-4101(01)00025-8.
13. Bushman R. M., Piotroski J. D., Smith A. J. What Determines Corporate Transparency? // *Journal of Accounting Research*. — 2004. — Vol. 42, No. 2. — P. 207–252. — DOI: 10.1111/j.1475-679X.2004.00136.x.
14. Solomon J. *Corporate Governance and Accountability*. — 4th ed. — Chichester: John Wiley & Sons, 2013. — XIV, 414 p. — ISBN 978-1-118-44910-3.
15. OECD. *OECD Guidelines on Corporate Governance of State-Owned Enterprises 2024*. — Paris: OECD Publishing, 2024. — 83 p. — DOI: 10.1787/18a24f43-en.
16. OECD. *Ownership and Governance of State-Owned Enterprises 2024*. — Paris: OECD Publishing, 2024. — 142 p. — DOI: 10.1787/395c9956-en.
17. OECD. *Roadmap for Sustainable Investment Policy Reforms in Uzbekistan*. — Paris: OECD Publishing, 2025. — 384 p. — (OECD Investment Policy Reviews). — DOI: 10.1787/20865f29-en.
18. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "2021–2025-yillarda davlat ishtirokidagi korxonalarni boshqarish va isloh qilish strategiyasi qabul qilinganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish, shuningdek, ba'zilarini o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblash to'g'risida"gi qarori, 2022-yil 26-oktabrdagi 619-son // O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi — LexUZ. — URL:



- <https://lex.uz/uz/docs/6254938> (murojaat sanasi: 21.09.2026).
19. La Porta R., Lopez-de-Silanes F., Shleifer A., Vishny R. Investor Protection and Corporate Governance // *Journal of Financial Economics*. — 2000. — Vol. 58, No. 1–2. — P. 3–27. — DOI: 10.1016/S0304-405X(00)00065-9.
 20. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Davlat ishtirokidagi yirik korxonalarni xalqaro bozorlarda xususiylashtirish to'g'risida"gi qarori, 2025-yil 21-apreldagi PQ-145-son // O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi — LexUZ. — URL: <https://lex.uz/uz/docs/-7488164> (murojaat sanasi: 21.09.2026).
 21. Mallin C. A. *Corporate Governance*. — 6th ed. — Oxford: Oxford University Press, 2019. — 440 p. — ISBN 978-0-19-880676-9. — DOI: 10.1093/hebz/9780198806769.001.0001.
 22. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Davlat ishtirokidagi korxonalar va tijorat banklari faoliyatining samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori, 2026-yil 25-fevraldagi PQ-74-son // O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi — LexUZ. — URL: <https://lex.uz/uz/docs/8066483> (murojaat sanasi: 21.09.2026).
 23. Shleifer A., Vishny R. W. A Survey of Corporate Governance // *The Journal of Finance*. — 1997. — Vol. 52, No. 2. — P. 737–783. — DOI: 10.1111/j.1540-6261.1997.tb04820.x.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 9

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100